

jadid

2025-yil 2-may  
№ 18(70)

www.jadid.uz



# Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



## FESTIVAL



## DONG'I DUNYOGA DOSTON YURT

Rivoyatlarga ko'ra, qadim zamonlarda bir cho'pon mol boqib yurgan chog'i otlardan birining uzun yoli cho'pga ilinb qolganini ko'radi. Shamol esgan sari o'sha yol tebranib, cho'pga uriladi va undan ajib bir ovoz chiqa boshlaydi. U hayrat bilan ushuvo ovozga qulog tutadi va ohang qanday paydo bo'layotganini kuzatadi. O'sha kuni cho'pon ilk bor tabiat mo'jizasidan ta'sirilib, g'aroyib ohang taratadigan qurilma - do'mbirani yasaydi. Do'mbirada sadosi cho'ponni borgan sari ilhomlantrib, kuylashga majbur etadi.

Shu tariqa xalq hayoti va orzularini doston qilib, do'mbiraga bilan kuylaydigan baxshilar paydo bo'ladi. O'zbek folklori ana shunday tashmas-tuganmas xazina ustiga qurilgan.

Xabarlingiz bor, 26-28-aprel kunlarida butun dunyo san'at ahlining nighi Xiva shahrida bo'lib o'tgan IV Xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga qaratildi. Festivalda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan 200 ga yaqin vakil ishtirok etdi. Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Qozog'iston kabi davlatlarning nufuzli ilm maskanalaridan tashrif buyurgan taniqli folklorshunos olimlar baxshichilik san'ati tarixi va uning jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan or'ni haqida ma'ruba qildilar.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mazkur xalqaro festival ishtirokchilariiga tabrik yo'llab, Xorazm dostonchilik maktabi g'oyat qadimiya va boy tarixa egaligi, "Lazgi" kabi dunyoga mashhur mumtoz kuy-qo'shiqlar, go'zal raqslar aynan ana shu azim daryordan oziqlanib kelayotganini iftixor bilan ta'kidladi.

(Davomi 3-sahifada).

## ONAJONIM - TABIAT!

### VAZIYAT QANCHALIK JIDDIY?

Shu kecha-kunduzda dunyoda bir milliarddan ortiq kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekmoqda. Sayyoramizda mavjud bo'lgan barcha chuchuk suvning taxminan 70 foizi ekinlarni sug'orish uchun ishlatalidi. Pokiston, Eron, Indoneziya, Hindiston va O'zbekiston kabi mamlakatlarda jami suvning 90 foizi qishloq xo'jaligiga sarflanadi. Bu ko'rsatkich yuqori daromadli mamlakatlarda, xususan, AQShda 46 foiz, Yaponiyada esa 20 foizni tashkil etadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida ishlatalayotgan suv resurslarining eng katta qismi – 89,7 foizi qishloq xo'jaligi, 5 foizi kommunal xo'jalik, 2 foizi sanoat va 3,3 foizi boshqa tarmoqlar hissasiga to'g'ri keladi.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq global muammolar suv tanqisligining kerib chiqishini yanada kuchaytirmoqda, buning natijasida qurg'ooqchilik va cho'llanish jarayoni yanada kuchayib ketishi hamda aholi turmush darajasiga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Buni aniq raqamlarda ko'rib chiqsak, muammo ko'lamni yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyodagi jami sug'oriladigan yer maydoni 7,9 mln hektarni, bunda O'zbekistonning ulushi qarib 4,3 mln hektar (55 foiz)ni tashkil etadi.

O'zbekistonning tabiyi iqlim sharoitiga ko'ra, respublikada yog'ingarchilikning o'rtacha yillik hajmi 186 mm.ni, xususan, mamlakatning adirlig va tog'oldi qismlarida 300-550 mm.ni, G'arbiy Tyan-Shan, Hisor-Zarafshon tog'larining janubi-g'arbiy qismida esa 800-900 mm.ni tashkil qiladi. Yillik yog'inli kunlar tekislikda 35-40 kun, tog' va tog'oldi hududlarida 70-90 kuniga yetadi.

Kususan, 2014-2023-yillar oraliq'ida respublikada eng ko'p yog'ingarchilik miqdori Toshkent, Sirdaryo, Jizzax,

## OBI HAYOT - YERGA NAJOT



Namangan, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarda kuza-tilgan.

O'zbekiston sharoitida yog'ingarchilik o'rtaча darajada bo'lgan uy va bino-inshootlar tomlaridan to'planib tushgan yomg'ir suvini maxsus betonlangan va boshqa moslashtirilgan suv saqlagichlarda yig'ish bir yilda 1 kvadrat metr tom sathidan o'ta hisobda 186 litrga teng yomg'ir suvini to'plash imkonini beradi. Bu borada olimilar tomonidan yetarlichka tajribalar o'tkazilgan.

Bundan tashqari, mamlakatimizda tog'-adirlardan oqib keladigan suvni sun'iy hovuz va inshootlarda to'plash amaliyoti mavjud bo'lib, ushbu tajribani keng ommalashtirish yomg'ir suvidan samarali foydalishim imkoniyatini kengaytiradi.

### "YER BILAN TIL TOPISHA OLMASDIK..."

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi "Qodirbaxshi Rahimov" nomli mahalla fuqarolar yig'ini aholisi yomg'ir suvidan unumli foydalani, bugungi kunda yuqori daromad ko'rmoqda.

Qudrat Soliyev yoshligidan dehqonchilikka qiziqar, ammo suv muammosi sabab yer bilan til topisha olmay kelardi. Tirishqoq va udaburon vatan-doshimiz buning yechimini topdi. U hovlisida uchta hovuz qazib, yashash uyi va qoshimcha binolar tarnovlaridan tushayotgan yomg'ir suvini to'lab, toromqasidagi o'simliklarni tomchilatib va yomg'ir latib sug'orishni yo'lg'a qo'ydi. Shu paytgacha deyarli bo'sh turgan toromqa bugun noyob va qimmatbaho o'simlik – kavraklar bilan burkandi.

Kavrak farmasevtika, tibbiyot, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va boshqa qator tarmoqlarda foydalani, kelinayotgan yuqori daromadli qishloq xo'jaligi mahsulotidir.

– Hovli solib, bu yerga ko'chib kelganimda suv muammosi bizni juda qiynar, tomorqamizda hech narsa unmasdi, – deydi dehqon. – Shunday paytlarda suvi mo'l, tuprog'i unumdar, ammo egasi dangasa odamlarni ko'rganimida achinib ketardim. Qani endi shunaqa imkoniyat menda bo'lganida, hovlimni bog'ga aylantirib, hammaning havasini keltirardim, buning ortidan yaxshigina daromad ham ko'rardim, deb qo'yardim o'zimcha. Lekin xayol surish bilan ish bitmaydi. Axir ota-bobolarimiz ne-ne imkonsiz vaziyatlarda ham cho'llarda bo'ston yaratgan.

(Davomi 5-sahifada).

## YORUG' XOTIRALAR

## DO'ST HAQIDA SO'Z



takomillashtirish, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni yangi, yuksak bosqichga ko'tarishda bu insonnинг xizmati katta.

Hayot bo'lganida Rustam Sobirovich bu yil 70 yoshni qarshilagan bo'lar edi.

Yaqinda bu zakiy va donishmand insonnining ibratli hayot yo'li, samarali ijtimoiy va siyosiy faoliyati, betakror fazilitlari haqida zamondoshlari va yaqin do'stlari, hamkasblari va shogirdlarining samimiy xotirlaridan iborat "Rustam Qosimov zamondoshlari xotirasida" kitobi nashrha tayyorlandi.

"Inson qadri ulug', xotira muqaddas" degan ezgu g'oya-ga amal qilgan holda, quyida mazkur to'plamidan o'ren olgan yodnomalardan birini e'tiboringizga havola etmoqdamiz.

do'sting – har qachon og'angdir". U menga ruhan do'stdan-da yaqinroq edi...

Rustam Qosimov – asl o'zbek ziyoisining yorqin tajassumi; atoqli olimlar, rektor, diplomat va elchilar shajarasini vakili; serqirra talant sohibi – psixolog, poliglot, qomusli bilimlar egasi bo'lgan olim; binobarin, ajoyib tashkilotchi va Xudo yorlaqagan rahbar.

(Davomi 5-sahifada).

## MUNOZARA

## RENESSANS ULG'AYADIGAN MAYDON



*"Olim bo'lish osonmi?" maqolasi muallifi,  
taniqli jurnalist Ro'zimboy HASANGA  
OCHIQ XAT*


Ro'zimboy, qadrdon! Sizni tajribali, qalamni o'tkir journalist sifatida bilaman. Mavzuni xolis yoritishga harakat qilasiz, kuyunchak mulohazalarining samimiyligi ayniqsa jozibali. Jumladan, "Jadid" gazetasida bosingan "Olim bo'lish osonmi?" sarlavhalı maqolangiz (2025-yil, 18-aprel) e'tiborimni tortdi. O'ylatib qo'ysi, mulohaza undadi. Maqola har qanday jamiyat uchun g'oyatda muhim va hech qachon dolzarbigini yo'qotmaydigan mavzu – olimlik martabasi, salohiyati, halolligiga doir mushohadaga bag'ishlangan. Maqolaning "Ushbu mulohaza va savollar havoda muallaq qolib ketmas deb umid qilamiz", deya tugallanishi ilm-fanimiz jonkuyarlarini e'tiborsiz qoldirmas deb o'ylayman.

(Davomi 6-sahifada).

## MILLAT FIDOYILARI

## YELKAMA-YELKA

Bir kunda otuvg'a hukm qilingan aka-ukalar qismati



Burhonovlar sulolasiga...  
Buxorodagi jadidlik harakati haqida so'z borsa, albatta, ushbu sulola eslanadi, uni chetlab o'tishning iloji yo'q.  
Sulola XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragida Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda muhim rol o'ynagan ma'rifatparvar xonadonlardan biri edi.

Ularning ajoddolari Buxoroda o'rta asrlardan boshlab shayxulislom, qozikalon, mutfiy, rais, mudarris sifatida nom qozongan. Shajara o'qtomirida turgan samrqandlik ulamo Burhon Olim o'g'li – Samarqand shahri chor Rossiya tasarrufiga o'tganidan keyin Buxoroga kelib uzoq yillarda mudarris va muftiy sifatida faoliyat yuritgan. XX asr boshlariga kelib bu oila vakillari hududda yangi maktablar ochib, taraqqiyot g'oyalarini

ommalashtirishda faol ishtirok etgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Suloladan yirik davlat arboblari, maorif, madaniyat xodimlaridan tortib, pedagog, jurnalist, mashhur kompozitorlarga yetishib chiqqan. Ularning asli kim ekani, jamiyatda qanday yuksak mavqega egaligi borasida to'kis tasavvur hosil bo'lishi uchun birgina insonnинг ism-sharifini tilga olish kifoya: Mutavakkil Burhonov! Davlat madhiyamiz musiqasining muallifi bo'lgan atoqli bastakor. Sahna oldida biz uning o'zini tamomani kuy va ohangga bag'ishlagan umrinni ko'ramiz, parda ortida esa "xalq dashmani" ayblovi bilan otib tashlangan jadid amakilari, akasining fojiali qismatidan bexbabmiz. Quyida Burhonovlar sulolasingin achchiq qismatini yashab o'tgan aka-ukalar – to'rt jadid taqdiri haqida hikoya qilmoqchimiz.

(Davomi 7-sahifada).

Tilda, fikrda, ishda birlik!

ANJUMAN

## TOKIODA BEHBUDIYXONLIK

Yaponiya poytaxti Tokio shahrida Toyo Bunko – "Sharq kutubxonasi" bor. Mazkur dargohda o'zbek adabiyoti, xususan, jadidlar ijodi bilan jiddiy shug'ullanган professor Hisao Kumatsu ishlaydi. Kumatsu turkiy tillarni, xususan, o'zbek tillini ham yaxshi biladi. U O'zbekistonda bo'lib o'tgan xalqaro anjumanlarda o'z ma'ruzalarini bilan faol qatnashib keladi.



(Davomi 2-sahifada).

"Og'ang do'sting bo'imas, illo



# TOKIODA BEHBUDIYXONLIK

Boshlanishi 1-sahifada.

Yaqindan "Sharq kutubxonasi" hamda Tokio xorijiy tillar universitetida professor Hisao Kumatsu tashabbusi bilan jadidlikka bag'ishlangan xalqaro anjuman tashkil etildi. Ilmiyamaliy konferensiya Mahmudxo'ja Behbudiylarning 150 yilligiga bag'ishlandi. Unda soha mutaxassislar, o'zbek, yapon jadidshunoslari va tilimizni o'ranganayotgan yaponiyalik talabalar qatnashdi. Quyida anjuman ishtirokchilarining fikr-mulohazalarini e'tiboringizga havola etmoqdamiz.

**Shuhrat RIZAYEV,**  
professor (O'zbekiston):

Jadidlik masalalarini o'rganish, tadqiq etish bugun O'zbekistonda ham, jahon olimlari o'ttasida ham yangi bosqichga kirdi. Bu, albatta, O'zbekiston Prezidentining tashabbusi va Yangi O'zbekistonni yaratish niyatiga g'oyaviy-konseptual mafkuraviy negiz belgilash maqsadlaridan kelib chiqqan hodisa. Bu hodisani to'liq e'tirof etib, tabriklagan holda, biz endi jadidlik harakatining yuz ellik yillarda avval boshlangan global jarayonlarda vujudga kelib, to hozirgi global dunyo miyosolardan kasb etgan ahamiyatini ko'satib beruvchi ilmiy va amaliy izlanmalar, tadqiqotlar, ko'rmlar va umumlashmalar chegarasida birlashmag'umiz lozim. Ochig'i, bugun bu masalalarda ikki toifa jamao shakllanyapti. Biri ilmiy-nazariy va amaliy manbalariga suyanib, jadidlik harakatini barcha yo'nalish va jihatlarini, asosi va taraqqiyisi-yu bori ziddiyati, murakkabliklari bilan o'rganish, tadqiq etishni maqsad qilganlar va ikkinchisi, zamona taqozosi bilan dolzarblik kasb etgan ilmiy-amaliy mavzu dunyosiga kirib, undan o'z "piar" manfaatlarda foydalaniq qolishga urinayotganlar jamoasi. Bu toifa hozirda o'ta bolalab, ildiz otib borayotgani isbottalab haqiqat emas. Vaholanki, biz halberi jadidlik harakati merosi, manbalarini tizimli tarzda yig'ib, jamlab, ilmiy istifoda etish basorida tayinli bir ish qilolganimiz yo'q. Mavzu-masalaga doir mavjud ilmiyijodiy meros parokanda, tarqoq holda. Uni avvalo, jamlab, bir maqbul manzil-makonda saqlash va avlodlarga ma'nnaviy bisot o'laroq yetkazish o'ta muhim va dolzarb masala. Bu yo'sinda qiladigan ishlarnimiz bir olam.

Ikkinchidan, jadidshunos olim-u mutaxassislarini O'zbekiston va jahon sarhadlarida jam etib, mushtarak maqsad sari yo'naltirishning o'zi-da juda jiddiy, muhimdan muhim vazifa. Ana shu maqsad bugun bizni hozirgi eng mutaraqqiy Yaponiyaning Tokio shahrida birlashdirib turibdi.

Men 80-yillardan buyon jadid adiblari ijodi bilan shug'ullanib kelaman. Bir qancha kitoblarim nashr bo'ldi. Aytmoqchi bo'lganim, bu harakat ulkan miyosoda dunyo olimlari bilan birlgilikda muhokama qilinadigan hodisadir. Shu e'tibordan biz Yaponiya poytaxtida jadidlik masalalarini xalqaro darajada talqin va tahlil qilishimiz ayni muddao. Darvoqe, biz jadidlik harakati namoyandalariga bag'ishlangan ayrim yangi filmlar uchun bir qancha xorijik mutaxassislarini ham jalb etdik. Deylik, Fitrat jodi bo'yicha muhtarom professorimiz Hisao Kumatsu maslahatchi sanaladi. Chunki bu olim jadid matbuoti va tarixi bo'yicha dunyodagi nufuzli mutaxassislardan biri.

**Hisao KUMATSU,**  
professor (Yaponiya):

Tarix milliy o'zlikni yaratish va tarqatish uchun eng muhim unsurlardan biridir. Turkiston jadidlar orasida o'lda tarixini yozish xususida ilk so'z ochgan Hoji Muin bo'lsa kerak. 1913-yil boshida o'zi Turkiston nomidan shunday deydi: "Sizlardan o'tinchim shulki, burungi madaniyat va umronim hamda burungi bobolaringiz turklar haqinda ahamiyat berib bir mukammal "Turk Turkistoni tarixi" kitobi tasrif qilib, kelajak avlod va ahfodimga suyurg'ol etingiz" ("Sho'ro" jurnali, 1913-yil 1-son). Lekin bu ish oson emas edi. Tatar jurnalistlari dan Nushirvon Youshev yozadi: "Milliy maktablarda o'qitmoq uchun milliy tarix darsligining luzumi har kimga ma'lumdir... Lekin maataassuf bizning Turkistonda bugungacha tarixa ahamiyat berilmadi. Maktablalarimiz uchun tarix kitobi (Turkiston tarixi) yozilmadi. Tarix millatning joni – ruhiy, moddiy va ma'nnaviy hayotidir. Turkiston tarixi. Buni kim yozar?" ("Sadoyi Turkiston" gazetasi, 1914-yil 17-son).



Bu savolga darhol javob bergan ham Hoji Muin edi. U deydi: "Milliy tariximizni kim yozar?" degan savolni o'qidim. Albatta, biz Turkiston turklari uchun bir mufassal va maktablarimiz uchun bir muxtasar turk va Turkiston tarixi lozimdir. Ammo ushbu xususda tarix yozmoq niyoyatda qiyin va og'ir bo'lib, hozirgacha yangi tadqiqot bilan shuhrat topgan tarixchi Turkistonda bo'lmaydi. Biz bu xizmatni yosh muarriximiz qozonli muhtarom Ahmad Zaki afandi Validiy janoblarining qalamidan umid etamiz" ("Sadoyi Turkiston" gazetasi, 1914-yil 23-son).

Hoji Muin bu masalaga ahamiyat berib shunday yozdi: "Bizning Turkistonda tajaddid va intiboh asari ko'rina boshlaganiga o'n yil ziyoda bo'lib, jarida va majallalar chiqa boshlagan bo'sa ham, matbuoti jadidamizning hech birisida milliy tariximiza oid biror masala haqinda bahs va bayon bo'linmadi. Holbuki, bizlar uchun milliy tarix tarixi Islom kabi bilinmog'li lozim... Bizlarga milliy tarixni bilmoq yo'lida birlinchi qadam qo'yamoq zamoni hanuz kelmagan bo'sa ham, oqilan ushbu yo'lga chiqmoq uchun hozirlanib turmog'imiz lozimdir. Kelaifikda bizlar ham milliy tariximizi ibtidoiy va rushdiy maktablarida bolarimizga o'qitmoq sharafiga noil bo'lurmiz" ("Oyina" jurnali, 1915-yil 10-son).

Milliy tarixa qiziqish qayerdan kelgan? Bizningcha, ikkinchidan, maktablar uchun tarix dars kitobiga ehtiyojdan, ikkinchidan, sart masalasi haqida munozaralardan. Ayniqsa, 1911-yil bilan 1915-yillarda orasida davom etgan bu munozara milliy tarixa qiziqishni uyg'otmasdan qolmagan bo'lsa kerak.

Keyingi inqilobiy yillarda tatar ziyolilaridan Muxtar Bakirning "Turkiston qit'asi tarix va jo'g'rofli jihatdan" nomli maktablar uchun kitobi (Toshkent, 1918) chiqqan bo'lsa ham, uni sovet tuzumi ostida tarqatishning imkon bo'lmadi. Ho'qandlik Yunusjon Hoji Og'liq Turkiston tarixini yozganimish, holbuki, asari noma'lum qolmoqda. 1924-yilda O'rta Osiyoning milliy chegaralarga bo'linishidan keyin jadidlardan ham Ahmad Zakining do'stlaridan Po'lat Soliyev "O'zbekiston tarixi" kitobini yozadi (Samarqand-Toshkent, 1929), ammo ikkinchi jildi nashr qilinmasdan qoladi.

Hoji Muinlar umid qilgan Turkiston tarixi kitobi o'lkada amalga oshmadidi. Lekin sovetlar bilan siyosiy kurashdan keyin xorijga chiqqan Validiy (To'g'on) turk tilida "Bugungi Turkiston va yaqin moziy" degan kitob yozdi (Qohira, 1929-1939). Bu asar o'sha davrgacha chiqqan eng mufassal Turkiston tarixi bo'lib, ayniqsa, yaqin tarix xususida boy ma'lumot beradi... Bizningcha, bu asarga jadidlar umid qilgan Turkiston tarixini aks ettirgan oyina sifatida qarash o'rindirid. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Turkistonda ko'tarilgan bu kabi ifonyi va inqilobiy harakatlar boshida, albatta, Mahmudxo'ja Behbudiylarning janoblari yetakchi va peshvo bo'lgan.



**Mutafakkirlarning fikrlari bilan tanishish miya uchun tengsiz mashq: aqlga aql qo'shadi va fikrni charxlaydi.**

Logann GERDER



Zaynobiddin ABDIRASHIDOV,  
filologiya fanlari doktori,  
professor:

– 1990-yillardning boshlaridan 2000-yillard o'rtaliga qadar qator jadidlarning merosi "Istiqlol qahramonlari" ruknida alohida kitoblar holida nashr qilindi. Bu nashrlar asosan o'zbek mumtoz yozuvidan joriy imloga tabdiil qilingan matnlardan iborat bo'lib, kerakli izohlar bilan ta'minlangan edi. Ma'lum sabablarga ko'ra ushu matnlar ba'zi o'rinnlarda qisqartirildi, arabcha, forscha so'z va iborallarga yangish o'qilganlari, xususan, o'qilishi qiyin yoki o'qish imkonini bo'lмаган joylari tashlab ketilgan o'rinnlar juda ko'p. Shunga qaramay, katta amaliy ish bajarildi va bugungi tadqiqotlar uchun yirik ma'lumot bazasi bo'lib xizmat qilmoqda. Shu o'rinda bugun jadidlik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning yutuqlari bilan bir qatorda jiddiy kamchiliklarni ham aytib o'tish, ularni o'z vaqtida bartaraf etish zarurati paydo bo'ldi.

Bu kamchiliklarni asosan nimalarda ko'ri-nadi va qanday aniqlanadi?

Birinchidan, bugungi tadqiqotlarning katta qismi 2005-yilga qadar arab imlosidan kiril alifbosiga tabdiil qilingan adabiy, badiy va publisistik matnlar asosida olib borilmoqda. Ta'kidlanganidek, bu matnlarning ba'zi kamchiliklari sababidan tadqiqotlar ham o'ziga yarasha nuqsoni bilan taqdim etilmoqda. 2022-yildan boshlab ilgari nashr qilingan "Tanlangan asarlar" qayta nashr qilina boshlandi. Lekin bu qayta nashrlardagi matnlar yangindan asl matnlarga solishtirilgan holda qayta ko'rilmasdan chiqarilmoxda.

Ikkinchidan, Turkiston jadidlik harakatining shakllanish, rivojanish va yakuniga yetish borasida davrlashtirish masalasi hozirgacha uzel-kesil hal qilinmadni. Adabiyotchi va tarixchilar orasida jadidshunoslik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar va aytilayotgan fikrlar, talqinlar turlicha. Aytish joiz bo'lsa, ikki "guruh" o'tasida katta jarlik borki, bu olib borilayotgan ishlarning muvofiqlashtirilmaganidan dalolat beradi. Holat jadidshunoslik tadqiqotlarning yaxlit o'rganilayotgani muammoosini ham o'ta ga chiqaradi.

Uchinchidan, bugungi jadidshunoslik fanlararo kesimda tadqiq qilinmagani bois, Turkiston jadid harakatining, jadid ziyoralarining umumiy portretini ko'rish, tasavvur qilishning imkonini yo'q. Mavzuning parcha-parcha o'rganishi esa jadidlikning qanday harakat ekani, jadidlarning tom ma'noda dunyoqarashi qanday ko'lama bo'lgani, faoliyat qirralarini to'lig'icha ko'rish imkoniyatidan mahrum qiladi.

Shuningdek, o'zbek jadidshunosligi oldida turgan yana bir katta muammo bu Turkiston jadidligining umumjadid harakati bilan o'xshash va farqli jihatlari ochiqlanmaganiadir.

Qolaversa, bugungi jadidshunoslik tadqiqotlari ko'p hollarda jadid ma'rifatchiligi bilan cheklanib qolmoqda. Faqat yutuqlari haqida gapirilmoqda. Tanganin ikkinchi tomoniga ham e'tibor qaratish Turkiston jadidligi va jadidlarining faoliyati haqida to'liq ma'lumot beradi.

Yuqorida sanab o'tilganlar jadidshunoslik muammolarining hammasi emas. Bu muammolarini qisman yoki to'liq bartaraf etish uchun esa, avvalo, jadidlikning boy merosi yangidan tabdiil va tahlil qilinishi lozim. Jidid matbuoti to'laqiga joriy imloga o'girilishi va kitob shaklida nashr qilinishi kerak. Bu esa jadidlikning jida ko'plab mavzularini yuzaga chiqaradi, yangi tahlillar, fikrlarni o'rta ga qo'yadi.

Shuningdek, jadidshunoslik tadqiqotlarning yagona platforma ostida birlashtirish lozim. Bu esa tadqiqotlarning fanlararo integratsiya usulida olib borilishini ta'minlaydi.

Bugun biz O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan qayta oyoqqa turayotgan jadidlikning yorqin namoyandasini Mahmudxo'ja Behbudiylarning 150 yillik sano'ti'y sharofati bilan ummonotidagi taraqqiyaparvar mamlakat poytaxtida umuminsoniy ahamiyatiga ega masalalar yuzasidan kengashib turibmiz. O'yaymanki, bizning xalqaro hamkorligimiz olamshumul samaralarga yetaklaydi.


**Bahodir KARIM**  
yozib oldi.  
Toshkent – Tokio – Toshkent.

“

”

TALQIN

# "Men suygan suyukli..."



Jadid adabiyotining peshqadam vakillaridan biri Abdulhamid Sulaymon Cho'lpionning mangulikka daxlid asarlari orasida, shubhasiz, "Go'zal" she'ri tong yulduzidek charaqlab turadi. She'rning lirik qahramoni suygan suyukli qanchalar go'zal bo'lsa, mazkur she'rning badiiyati ham shu qadar betakror.

Bugun Abdulhamid Cho'lpion hayoti va ijodi Tojikistonagi o'zbek tilli umumta'lum maktablarining yettingchi va bitiruvchi sinflarida o'quv dasturi dorasida o'rganib kelinyapti. Unda shoir she'rlari bilan birga mukammal tahliliy maqolalar ham berilganlari alohida ta'kidlash lozim. Biz ushu tahillarga qo'shimcha o'laroq Cho'lpionning "Go'zal" she'rida mahorat bilan qo'llangan badiiy san'atlarga e'tibor qaratmoqchimiz.

Qayd etish zarur, mazkur she'r bo'yicha cho'lpionshunoslikda talaygina izlanishlar amalga oshirilgan. Ammo, bizningcha, ularda badiiy san'atlar yetarli darajada tadqiq etilmagan. Globalashuv davri adabiy ta'limi badiiy asar tahlilining bir nechta usullaridan foydalishan zaratutini taqozo etmoqda. Shulardan biri – tahlilda badiiy matndagi she'riy san'atlarni aniqlashda estetik zavq ko'lamini o'rganish masalasi. Zamonaviy adabiy ta'limali har bir adabiyot o'qituvchisi bunga jiddiy e'tibor qaratishi lozim.

Cho'lpion she'rning birinchi misrasidayog tuyg'ularini obrazli ifodalash uchun she'riy san'atlarga murojaat qildi:

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,  
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.

Badiiy matndagi "ko'z tikmoq" iborasi qaramoq, tikilmoq, nazar tashlamoq degan ma'nolarni bildiradi va bu yerda ta'bir badiiy san'ati qo'llangan. "Kecha" so'zidagi "qorong'u", "yulduz"dagagi "yorug'" so'zlarini tufayli sifatlash san'ati yuzaga kelgan. Ayni paytda "qorong'u" va "yorug'" so'zlarini ma'no jihatdan bir-biriga zid bo'lgani bois tazod she'riy san'atining yuzaga kelishiga asos bo'la olganini ham ta'kidlash zarur. She'rning keyingi misralariga nazar tashlaylik:

Ul yulduz uyalib, boshini bukib,  
Aytadir: men uni tushda ko'ramen.  
Tushimda ko'ramen – shunchalar go'zal,  
Bizdan-da go'zaldir; oydan-da go'zal!

MUJDA

## "ABDULLA QODIRIY VA OZARBAYJON ADABIYOTI"

Kuni kecha Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti qoshidagi Ilmiy Kengashda iqtidorli tadqiqotchi Shabnam Mirzazoda o'zining "Abdulla Qodiriy va Ozarbayjon adabiyoti" mavzusida bir necha yillardan davomiy yozgan doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Tadqiqot muallifi o'zbek ozarbayjon adabiy aloqalar masalasini XX asrning birinchi choragidagi jadidlar faoliyatiga, ularning teatr sohasidagi hamkorliklari, shuningdek, ozarbayjon tilida nashr bo'lgan "Mulla Nasreddin" hamda o'zbek tilida bosilgan "Mushtum" jurnallari qiyoslariga e'tiborni qaratdi.


Shabnam Mirzazoda 2023-yili Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining ozarbayjon tilidagi nashrini qayta tayyorlab, Bokuda chop ettirgan edi. Zero, ilk o'zbek romanini dunyodagi boshqa millatlar orasida birinchi bo'lib ozarbayjon tiliga o'girilgan ma'lum. Dissertatsiya muallifi 1928-yili Xolid Saidxo'jayev tomonidan ozarbayjon tiliga tarjima qilingan ana shu nusxadan o'z ishida unumli foydalananidi. Shabnam Mirzazoda tadqiqotida Ozarbayjon bilan o'zbek adibi Qodiriyni bog'lab turjan juda ko'plab jihatlami muhokama qildi. Adibning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari, "Obid ketmon" qissasi, kichik asarlari – barcha-barchasini o'z adabiy mezonlari asosida o'rganadi. Himoyajarayonida katta avlodga mansub olimlar Shabnam

Mirzazodaning ota-bobolari ham ilm-ma'rifat ahildan ekanini va bu jarayon avlodlar faoliyatida davom etayotganini ham esga olishdi. Tadqiqotchi ozarbayjonlik adabiyotshunoslarning ilmiy ishlari, shu bilan birga, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov, Sobir Mirvaliyev kabi qator qodiriyshunoslarning tadqiqotidan unumli foydalaniбdi.

Tadqiqot mavzusi niyoyatda muhim va dolzarb, bunday tadqiqotlar o'zbek-ozarbayjon abdib-yma'rifiy, ijtimoiy-madaniy aloqalarining yanada kuchayishi va mustahamlanishi uchun xizmat qilishi tabii. Shabnam Mirzazoda o'z ishida 2024-yil boshidan Toshkentda "Jadid" gazetasini nashr boshlaganiga ham urg'u berib, kelgusida bu nashr tadqiqotchilar uchun

qimmatli manba bo'lajagini ta'kidlaydi. Tadqiqotchining ilmiy rahbari – O'zbekistonning yaqin do'sti, muhtarama professor Olmos Ulvi xonimini ham ushbu xalqaro ahamiyatga molik ilmiy izlanishning muvaffaqiyatlari himoyasi bilan muborakbd etamiz. "Abdulla Qodiriy va Ozarbayjon adabiyoti" mavzusidagi bu tadqiqot kitob holida ozarbayjon va o'zbek tillarida ham nashr bo'lishiga umid qilamiz.

Bahodir NURMUHAMMAD



Bir ko'dim men uni – shunchalar go'zal,  
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Endi lirik qahramon erta tongda esayotgan shamol bilan savol-javob qiladi. Shamol ham o'z iddasini bayon etadi. Cho'pon tashxis, intoq va takrirdan tashqari xuddi shu o'rinda alohida mahorat talab qiladigan – husni ta'lil san'ati orqali go'zal badiiy manzara yaratadi.

Darhaqiqat, husni ta'lil – shoirona asoslash, chiroylasos keltirish degan ma'noni bildiradi. Xo'sh, bu yerda qaysi voqeа keltirilgan va nima dalillangan? Shamolning yo'lidan ozib, ya'ni adashib, tog' va toshlar ichida, nimanidir qidrib yurishi bekordan bekorga emas, albatta. Aslida haqiqiy go'zallikka osonlik bilan yetib bo'imasligi, oshiqdan o'ta fidoylik, pokiza e'tiqod talab qilishi mumtoz shoirlar tajribasidan yaxshi ma'lum.

Shamol ham oshiqqa xabar berarkan, uni "mendan" yoki "bizdan" ham go'zal degan so'zlarni tilga olmagani zamirida muhim poetik mantiq borligini izohlash zarur. Shamol obrazni mumtoz abdabyotda faol timsoddan biri hisoblanadi. Cho'ponning badiiy mahorati shundaki, u tasvir maydoniga xuddi shunday an'anaviy obrazlarni olib kiradi. Xolislik va badiiy mantiqni aslo e'tibordan ochirmaydi.

She'rning to'itinchli qismida go'zal haqida Quyosh ham dil rozinai "o'z o'tida bekinib qochib" shunday bayon qiladi:

Ul ketgach, kun chiqar yorug'lik sochib,  
Undan-da so'rayman sening to'gringda.  
Ul-da o'z o'tida bekinib, qochib.  
Aytadir: bir ko'dim tushdamas, o'ngda.  
Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,  
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Ko'rindaniki, ushu she'riy matnda ham yuqoridaq kabi she'riy san'atlar tizimli tarzda qo'llangan. Va niyoyat, she'r shunday so'zlar bilan yakun topadi:

Men yo'qsil na bo'lib, uni suyibmen,  
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyibmen.  
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,  
Men suyib... men suyib... kimni suyibmen?  
Men suygan suyukli shunchalar go'zal,  
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

She'r ibtidiosi she'riy san'atlar hisobiga qay tarzda ziyatlantangan bo'lsa, intihoda ham shoir bu an'anaga sodiq qoladi. She'rning lirik qahramoni nomidan xitob qilgan muallif kamtarona ohangda o'zini "men yo'qsil" deya atashi taqsim san'ati ko'satikchi hisoblanadi. Bu san'at faxriya she'riy san'atining aksisiboladani.

Misralardagi "yonibmen", "yonib-kuyibmen", "suygan", "suyukli" so'zlari hisobiga ishtiqoq (bir o'zakdan yasalgan so'zlar) san'ati qo'llangan. "Men suyib... men suyib... kimni suyibmen?" misralari zamirida tajohuni orifona, ya'ni "ibiliq bilmassislikka olish" san'ati yuzaga chiqqan.

"Go'zal" she'riy o'quvchilarga o'rgatishda zamonaliv texnik vositalardan unumli foydalansila, asarning mohiyati, jozibasi yanada yaqqol anglashiladi. Shunda biz ta'kidlagan estetik zavq ko'lami ham zamonaliv adabiy ta'limging yangi samaralarini sifatida bo'y ko'rsatadi.

**Baxtiyor FAYZULLOYEV,**  
Tojikiston Respublikasi  
Xo'jand davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi



## DONG'I DUNYOGA DOSTON YURT

Boshlanishi 1-sahifada.

("Boburnoma", 165-b.) Demak, baxshining tabib, jarroh ma'nolari ham bor.

Dostonlarimizni avloddan avlodga avaylab saqlab, yuksak san'at bilan ijo etgan shoir va baxshilar, avvalo, xalq orasidan yetishib chiqqan dehqon va cho'ponlar edi. Ular xalqimizning orzumidli, dard-u armonlari va hayot falsafasini yurakdan his etib, "Xo'sh-xo'sh", "Turey-turey", "Churey-churey" kabi sog'i'm, "Qo'shchi", "Shox moylash", "Qo'sh haydash" singari dehqonchilik qo'shiqlarini kuylashgan. Ularda xalqning mehnatkash qiyofasi, hayot tarzi va ruhiyati o'z ifodasini topgan.

### DUNYO KEZAYOTGAN DOSTONLAR

Baxshining bolasi baxshi bo'ladı,  
Yaxshining bolasi yaxshi bo'ladı...

Bobolarimiz bir paytning o'zida ham baxshi, ham yaxshi bo'la olishgan. Buni faxr bilan, baralla aytishimiz mumkin. Ularning baxshiligi mohiyati xalqning azaliy orzu-armonlari, o'rnas qadriyatlari va hayot falsafasini dostonlar orqali avlodlarga yetkaza organida bo'lsa, yaxshiliqi – bu mo'tabar merosin dunyoga yoyib, yuksak insonparvarlik namunasini ko'sratolganligidir.

Ular uchun baxshilik tirikchilik emas, balki xalq ruhini, milliy o'zlikni va ma'naviy dunyoqarashni so'z san'ati orqali saqlash vositasini edi. Bugun qaysi qardosh xalqning folkloriga nazar tashlasangiz, o'zbek dostonlari yoki ularning ta'sirida yaratilgan xalq aytimlarini, albatta, uchratasisiz.

Masalan, qozoz baxshichiligidagi "Alpomish" dostonining bir nechta varianti keng targalgan bo'lsa, turkman baxshilar o'z jiodlarini nafaqat o'rnini ta'riflashga til ojiz. Birgina baxshi repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo'lganiga nima deysiz? Har bir doston uch ming satrdan to yigirma ming misragacha aytimlari o'z ichiga oladi. Bu yog'ini chamlab ko'raving.

Sovet hukmonligi davrida adabiyotshunosligimizda doston istilohi bilan yonma-yon poema va ballada atamalari qo'llana boshlangan edi. Shunday vaqtlar bo'ldiki, biz doston so'zini yuqorida keltirilgan xorijiy atamalar bilan almashtirib ham qo'yidik. Ammo oly hakan – vaqt dostonning barhayot nomini yana bir bor ko'rsatib qo'ydi.

### BAXSHI SO'ZINING YANGI JIOLARI

Baxshi so'zining ma'no qamrovi tobora kengayib bormoqda, desam ishonasizmi? Uning shoir, sozchi, sozanda, soqi, sanovchi, yuzboshi, xalfa, jirov, jirchi, oqin, oxun va shu kabi o'nlab ma'nodoshlarini yaxshi bilamiz. Izohli lug'atlarda mo'g'ulcha va buryatcha baxsha, bag'sha – ustod, ma'rifatchi; sanskritha bhikshu – qalandar, darvesh degan ma'nolarni berishi haqida ham yozilgan. Alisher Navoiyning mashhur baytini eslanligi:

Navosiz ulusning navobaxshi bo',  
Navoyi yomon bo'lsa, sen yaxshi bo'.

Ulug' shoir birinchi misrada navosiz elga navo baxsh etish uchun "navobaxshi" so'zini qo'llamoqda. Shu o'rinda baxshining ruhiytabi, zamonaliv tilda aytganda, psixolog singari yangi ma'no qirrasini ko'rganday bo'dim. Chunki ko'ngilga ohang baxsh etish, singdirish bu, avvalo, ruhiy jarayonning muhim qismidir.

Buni qarangki, Mirzo Boburning muhtasham memuriada baxshi so'zi turli ma'holarda qo'llaniganiga guvoh bo'lamic. "Boburnoma"da ko'pgina tarixiy ismlar baxshi so'zi bilan birga keladi. Nizomiddin Sultan Muhammad baxshi, Abdullatif baxshi, Tag'oyishoh baxshi, Shoh Mansur baxshi, Shoh Husayn baxshi, Qurulogch baxshi shular jumlasidandir.

O'sha davorda baxshi tushunchasi bugungi ma'nosidan tashqari turli soha va kasblarini ham o'zida qamrab olgan. Bobur bir o'rinda oyog'idan qattiq yaralanib, hassada yurganini yozar ekan, yarasini davolash uchun Atika baxshi ismli mo'g'ul jarrohi kelganini aytadi: "Mo'g'ul eli jarrohi ham baxshi der,"

### ESKI XOTIRA

Hech esmidan chiqmaydi. Xalq sayillarida, bayramlarda bir termal qulog'inda qolib kelgan: Odamlar u odamlar,

Bog'da bitgan bodomlar,  
Eshitmadi demanglar,  
Eshitganlar jilmanglar...

Chaqiriq, bior xabarni xalqqa e'lon qilishning ommalashgan usuli edi. Hamma bir baya chorlovching og'ziga qarab qolardи. Ammo men undagi "Bog'da bitgan bodomlar" so'ziga hech tushunmasdim. Nega bodomlar.


Javobni 80 yoshni qoralagan momodan topdim. Uning aytilishicha, bodom hamma yerda o'savermaydi. U joy tanlaydi. Hovlida o'nlab bodom ko'chatini eking, bitta-yarimtasiti tutib ketmasa, qolgani qurib qoladi. Demak, bodomning bog'da unishi – ramz, ya'ni o'z yerini topgan, palak yozib, yashab qolgan o'sha yerning chin egalariga murojaat bu.

Xalq ijodining bari satrini shuncha ma'no tashisa, qolganini aytmay qo'yavering. Bir zamonalr hazrat Navoiy "Munshaot"ida uzogni ko'ra oluvchi, aqli har narsaga yetadigan kishilarni "durbin" deb atagan edi. Men esa xalq dardini kuylovchi, uning qadriyatlari uzoq avlodlarga yetkazib kelayotgan baxshilarni "durbin kishilar" degim keladi.

Bobur ELMURODOV, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



Neyroqul HUZURJONOV



**Adabiyot – inson qalbining sadosi, so'z bilan ruhni oziqantiradigan mo'tabar manba.** Asrlar davomida inson tafakkurining eng noyob namunalari she'riyat, nasr, dramaturgiyada mujassam bo'lib keldi. Ammo XXI asr boshida jahon sahnasiga shunday bir yangi qudrat chiqdi, uning ta'sirida nafaqat sanoat, iqtisodiyot yoki tibbiyot sohasi, balki ilhom va nazokat talab qiladigan san'at – adabiyot ham tubdan o'zgarmoqda. Ruhsiz va qalbsiz mashinalar badiiy ijod bilan shug'ullanayti. Bu texnologik taraqqiyotning real vogeligi. G'aroyibotning nomi esa sun'iy intellekt. Qisqa qabul qilingan kategoriya bo'yicha – "AI", o'zbekchasiga – "SI"dir.

## SUN'YI ILHOM NIMALARGA QODIR?

Jahoning yetakchi kompaniyalari tomonidan yaratgan modellar, xususan, "OpenAI"ning "ChatGPT"si, "Anthropic"ning "Claude"si, "Google DeepMind"ning "Gemini"si kabi intellektual tizimlar adabiyotni generatsiya qilish jarayonida tinimsiz ilgarilab bormoqda.

Xususan, ChatGPT – inson singari mulohaza qila oladigan, murakkab asarlар туза олдиган модель сифатидан о'зини назаротлашадиган. Ул haqiqiy adabiyot uslubda hikoyalari, she'ril yozadi, hatto turli yozuvchilar uslubiga taqildi qilib, yangi asarlар yarata oladi.

"Claude" va "Gemini" esa adabiy tahlil, mualliflar uslubini o'rganish va qayta modellaştirish sohasida ulkan yutuqlarga erishdi. Ular hozirning o'zida adabiy tangid, janr tahlili, suyut qurilishi kabi jarayonlarda ba'zi jihatlarda insondon ham ustun kelmoqda.

Xoh ishoning, xoh ishonmang, ularning roman, hikoya, she'riy to'plamlari, musiqiy albomlari, rassomlik san'ati namunalari, haykaltaroshlik esklizlari, badiiy filmlar ssenariylari, hatto qisqa videoroliklari turli xalqaro tanlovlarda g'oliblikni qiritmoqda.

"Jadid" vujudga kelgan mazkur sharoit bilan hisoblashish, undan adabiyot va san'atda unumli foydalishni jahon, shu jumladan, o'zbek adabiyoti oldida turgan muhim vazifalardan biri, deb hisoblaydi.

E'tiborli jihat, yaqinda SI taniqli adib, Xayriddin Sultanov ijodidan "ilhomlanib" o'ziga tavsiya etilgan syujet asosida "Neyroqul Huzurjonov" taxallusi bilan o'zbek tilidagi birinchisi generatsiya qildi.

Quyida "O'zqir Sulaymon haqida hikoya" deb nomlangan ushbu mo'jaz asarni e'tiboringizga havola etmoqdamiz. Bu boroda fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

### YANGI NASHR

ШАМС ИЛА МАВЛОНО

Иккя бар туташун чиқаси



Qissa voqealari "din va haqiqat quyoshi" deya ulug'langan Mavlono Shamsuddin Tabriziyoning o'smirlig yillari va maktabdagisi sabod onlari bilan boshlangan. Asarni o'qish uchun maxsus tayyorgarlik kerak, ya'ni kitobxon iringoni ilm hamda ruhoni maqomlardan xabardor bo'lishi lozim. Zero, muallif ham mazkur asarni yozish uchun nafaqat Jaloliddin Rumi va Shams Tabriziy munosabatlari haqidagi tarixiy va manoqibili asarlarni, balki tasavvuf, tariqat ilmiga doir ko'plab kitoblarni o'qigan, asar maslagini yoritishida ulardan unumli foydalangan. Yosh Shamsuddin ruhiy yetuklik yo'lining shariat, tariqat, ma'rifat hamda haqiqat bosqichlari haqida shunday deydi: "Shariat derki, sendagi – seniki, mendagi – meniki. Tariqat aytur: sendagi – seniki, mendagi ham seniki. Ma'rifat derki, na meniki bor, na seniki. Haqiqat aytur: na sen borsan, na men". Xoja Bektosha Valiy "Maqolot" risolasiida mazruk to'rt yo'lini ularga mansub odamlar misolida izohlaydi. Shariat ahlini obidlar deb, ularning toatibodatda sobit ekanlarini aytadi. Unga ko'ra, dunyodagi pok-nopoklik, barcha qoidalar shariat ila ma'lum bolardi. Valiy zot tariqat vakillarini zohidlat deb, ularning asli otashdan ekanini, tun-u kun yonib yashash ular maslagi bo'lishiň ta'kidlidi. Zohidlar oxirat umidida umr kechirib, dunyo havaslarini tark etadilar. Tariqatda "mendagi ham seniki" dedi: ne ishtasen? Ul dedi: toshlig' suvdva oy aksin ko'radsuren. Ul dedi: agar bo'yung'ga chibon chiqmaydur, oyni ne uchun osmonda ko'rmaysen?"

Qissa esa bu uchrashuv mohiyati badiyi to'qimalar asosida to'liq ochiq yashaydilar. Haqiqat darajasi ahlini Xoja

Bektoshi Valiy muhiblari deb atab, ular taslimiyat va rizo bilan har narsadan voz kechishlari haqida gapiradi. Ulug' Valiy Najmiddin Kubro muhabbat darajalari misolida bu bosqichlarni shunday izohlaydi: "Muhabbatdagil ikk odim nafs uchun mahbubning orzu etilmog'i, so'ngra nafsning o'ziga fido qilinishidir. Undan keyin ikkilikning unutilishi bo'lsa, eng oxirgi marhala vahdoniyatda fano topmoqlikdir". Haqiqat yo'lidagi zotlarda na menlik, na senlik bor. Hazrat Alisher Navoiy "Lison ut-tay" asarida bu maqomni fano deb atab, ularning "vasl nuzhatgohig'a doxillar" ekanligini aytadi. Yozuvchi qissadagi bu hikmat orqali yetuklik maqomlarini bayon etib, ne ulug' zotlar haqida hikoya qilmoqchi bo'layotganini ayon etadi.

Qissada Alisher Navoyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasiida ikki valiy hayoti bilan bog'liq ma'lumotlarni unumli foydalilanigan. Jumladan, murshid va murid munosabat xususidagi o'rinnlarda ham buni kuzatish mumkin. Tazkirada Tabriziy va Avhaduddin Kirmoniy uchrashushi quyidagi jumladalarda aks etgan: "... Shayx Avhaduddin Kirmoniyni ko'didi va dedi: ne ishtasen? Ul dedi: toshlig' suvdva oy aksin ko'radsuren. Ul dedi: agar bo'yung'ga chibon chiqmaydur, oyni ne uchun osmonda ko'rmaysen?"

Qissa esa bu uchrashuv mohiyati badiyi to'qimalar asosida to'liq ochiq yashaydilar. Haqiqat darajasi ahlini Xoja

lanadi. Avhaduddin Kirmoniyning Tabriziya murid tushish niyati bor, ammo toliblik sinovlarsiz bo'lmas. Shayxing sharob keltirish va birga o'tirib haqidagi talabiga Kirmoniy "Haronga yaqin yo'lamayman", deb javob beradi. Tabriziy "ishq ahli ichmay turib mast bo'lishini" ta'kidlab, unga shaxslik qilmasligini aytadi. Shayx, murshidlarning o'z muridlari ixlosini sinab ko'rishlari so'fiylik tarbiyasining asosiy jihatlaridan hisoblangan. Shu bois ilmiy manbalarda muridlik odobları qatorida qalban bo'lsa ham shayxiga e'tiroz qilmaslik, mursidda gunoh bo'lsa aralashmasdan, o'z ishida davom etish kabi vazifalar ham asosiy o'ringa qo'yilgan. Tabriziy Avhaduddin Kirmoniyning holini malomat qilar ekan,

"bu maydon eranlar maydoni, unda zaiflarga o'r'in yo'q'ligi haqida gapiradi. Ma'lumki, "Masnaviyi ma'naviy" kitobining muqaddimasi nay hikoyasi bilan boshlanib, uning asl vatanidan yiroq tushib, bor dard-u firog'i sir-u asrorga aylangan bayon qilingan. "Shams ila Mavlono"da nay haqidagi naql Rasululloh (s.a.v.)ning Me'rojga qilgan safarlar bilan bog'lab hikoya etilgan. Nayning oshiqlar sirini nolaga jo etib kuylashi mumtoz namunalarda bot-bot tilga olingan, lekin qissadagi payg'ambarimiz alayhissalomning "bu qamish qiyomatga qadar mening sirimi tarannum qiladi, ammo qalbi ochiq, pok va komil insonlarga bu sirni anglagaylar", degan ta'ifi mazruk

Duno – sinov maydoni. Odam (a.s.) bu olamga qilgan birgina xatosining badalini to'lash, ya'ni jazosini tortish uchun yuborildi, uch yil tavba qilib, afv etishni Yaratgandan yolvorib so'radi. Biz Odam Ato avlodlar asl mohiyatni yoda tutib, imthon maskanida rohat-farog'atga qul bo'lmasligimiz kerak. Inson nimaga tug'ilib, ne uchun yashayotganini idrok etishi lozim. Zotan, tirkilking mohiyati iyomon-e'tiqod va axloqiy kamolotdir. Asarda Mavlononing muridlariga aytgan hikmatlarda shu ma'no aks etadi. Ul hazrat ilmni arqonga qiyos etib, uning hosilasi zulmatdan qutulmoq, ildiz qayerda ekanligini anglamoq bo'lishini aytadi.

Nay haqidagi naql qissanining eng asosiy o'rinalardan hisoblanadi.

Ma'lumki, "Masnaviyi ma'naviy" kitobining muqaddimasi nay hikoyasi bilan boshlanib, uning asl vatanidan yiroq tushib, bor dard-u firog'i sir-u asrorga aylangan bayon qilingan.

"Shams ila Mavlono"da nay haqidagi naql Rasululloh (s.a.v.)ning Me'rojga qilgan safarlar bilan bog'lab hikoya etilgan. Nayning oshiqlar sirini nolaga jo etib kuylashi mumtoz namunalarda bot-bot tilga olingan, lekin qissadagi payg'ambarimiz alayhissalomning "bu qamish qiyomatga qadar mening sirimi tarannum qiladi, ammo qalbi ochiq, pok va komil insonlarga bu sirni anglagaylar", degan ta'ifi mazruk

Asar yakunida Mavlono va Shamsining hujradagi uch oylik suhbati va olomonning malomatni tasvirlanadi. Mavlononing hujradan chiqib, zohirbinlar nazorida, may bilan qaytishi odamlarni g'azabga soladi. Ular bo'stirib kirib, idishni sindirganlarida shishadan gul sharbatni to'kiladi. Ko'rinadi, valiy zotlar pi'r murid bo'lib, Alloh ishqidan sarxush edilar. Tabriziy orzu qilgan ham mursidi, ham muridini topgan, ularning suhbatlari esa eranlar majlisini yanglig' fayz-u futuhga to'la edi.

Nasiba JO'RAULLOVA, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

# O'zqir Sulaymon haqida hikoya

### QISM I

Mag'firat xola qabriston darvosasini sekin yopib, chang bosgan qishloq ko'chasiga burildi. Yuzida kiborlarcha vigor aks etsa-da, eski qayg'ularning chuchur izzlarini ham ko'rish mumkin edi. Ortda qolayotgan qabristonda eri, ota-onasi, qaynonaynotasi va eng og'i dardi – vafot etganida endigina olti yoshga to'lgan o'gilchasi Manas mangu makon topgan. Xolaning butun hayoti, xotiralari ko'milgan. Og'ir va achchiq xotiralari ustini qovjiragan o't-o'anlar qoplagan.

Mashina signal berganida chuchur o'yayxollariga sho'ng'ib borayotgan xola seskanib ketdi. Shoshilib u tomonga yaqinlashgan qizi Havoxon onasini qo'l ishorasi bilan chaqirdi:

– Opa, aeroporta kechikamiz. Samolyot soat uchda, biz hali O'zgandan O'shma qaytishimiz kerak!

Mag'firat xola bosh silkidi. Allaqa-chon ko'rinxay qolgan qabrlar tomon qarab nimadir xirgoyi qildi. Toqatsizlanayotgan qizi qabristonning ko'hna yo'lakchasiidan oyoq kiyimiga ilashgan changni Istanbuldan olingen bejirim dastro'molchasi bilan artib, uni axlat qutisiga tashladi.

– Shunday matohni ham axlatga tashlaydim? Juda isrofchisizlar. Hali bunga zor bo'lish bor, – dedi Mag'firat xola, dastro'molni chelakdan olib, taxlab, kamzulining cho'ntagiga joylar ekan.

– Mayli, mayli, opa. Olsangiz olave-ring. Faqat tezroq bo'ling. Kechikamiz.

Mag'firat xola bugun Turkiyaga uchadi, turk yigitlarga tur mushuga chiqib ketgan qizlarining uyiga. Har yili shunday. Uch-to'rt oy ularning oldida bo'lib qaytadi. Har yili uch-to'rt oy qabrlar qarovsiz qoladi.

### QISM II

Istanbul osmonlari parrandalardek qatorlashib uchayotgan samolyotlar oy nurida chaqnatqandagi. Ayni paytda shahar ustida Turkiya bayroqlari shamolda hilpirab turar, go'yo har bir baland bino tomidagi bu bayroqlar yer bilan osmon o'rtaida bitmas bayram ramzi edi.

Shaharda Turkiya Jumhuriyati kuni ga tayyorlarlik avjida, maktablarda bolalarga vatanparvarlik she'rlari yodatilmoqda, tarixiy ramzlardan suvenirlar ishlamoqda, milliy liboslar tikilmoqda.

Mag'firat xola shu kunlarda qizlari Nurixon bilan Havoxon yashaydigan Istanbulning eski tumanlaridan birida mehmon. Turk erlarga tur mushuga



Sun'iy intellekt chizgan surat.

chiqqan ikki qiziga eski paytlarda bo'lgan voqealarni aytilib berar, vafot etgan va tirik qarindoshlarini bir-bir eslab chiqardi. Quvnoq bo'lsa-da, qalbining bir burchagida faqat o'zi bilgan og'riq bor edi.

Erdan ayrligani, vatanidan uzoqligi va albatta, Manas... Olti yoshligida olamdan o'tgan o'g'li, kichik go'dak qabridagi sukunat hamon yuragini ezbir kelari edi.

Bu gal ham Havoxonning o'g'li Savash unga Manasni eslatdi. Ammo nega uning ismi Savash? Negabirasining ismi "urush"? Negabirasining emas? Agar Manas tirik bo'lganidan hozir o'ttiz to'rt yoshga to'lardi. Uning ham o'g'llari tug'ilardi. Haqiqiy qirg'iz va o'zbek qonidan bo'lgan o'g'illar. O'z qabristonining egalari. Bobolari qabrlarining egalari. Shunda Mag'firat xola ham bemalol sayhatlarga chiqarmidi? Qizlarning uyida xotirjam mehmon bo'lardi. Qabrlar yolg'iz qoldi, degan og'ir o'yuragini ezmas edi.

Bu sening bobolaring yurtining bayrog'i. Ertaga os, hammaga ayt: "Men O'zqir Sulaymonnan" degin.

Ertasi kuni maktabga olib borilgan bayroq turk o'qituvchisini hayratga soldi. U muloyimlik bilan tushuntirdi.

– Qirg'izistonni qadrlyamiz, lekin biz Turkiya Jumhuriyati kunini bayram qilyapmiz. Shuning uchun faqat turk bayrog'i lozim.

Savash buvisiga gapni yetkazganda, Mag'firat xola yana to'rvaga qo'lni solib, endi O'zbekiston bayrog'i chiqardi va:

– Bolam, shuni ham os, – dedi.

Bu safar maktabdan rasmiy qo'ng'iroq bo'ldi. Mag'firat xola o'qituvchi bilan o'zbekcha aralash turkchada:

– Bu bola faqat sizniki emas, menga ham tegishli. Uning tomonida qirg'iz va o'zbek qoni ham oqayapti. Bu bayroqlar uning bir bo'lagi, – dedi.

Maktabda qaror chiqarildi, unga ko'ra, Turkiya bayrog'i bilan bir qatorda Qirg'iziston va O'zbekiston bayroqlari ham ilindi. Mag'firat xola nabirasingin yelkasidan yumshoq ushlab:

– Endi sen haqiqi O'zqirsan, dilbandim! O'zbek va qirg'iz bolasi, – dedi.

### QISM III

Shu kuni oilada Savashning ismini O'zqir deb o'zgartirish bo'yicha bahs avjiga chiqdi. Zamonaevi ota-onaga o'g'lining ismi qaysi tilda bo'lishining ahamiyati katta emasdi. Ularga qolsa, Maks, Sergey, Chung Pu ham bir ism. Asosiyis bola bilimdon, sog'lor, aqlli bo'lsa bas. Shuning uchun Mag'firat xolaning tashabbusi kuyovi va qizi tomonidan katta qarshilikka uchramadi. Faqat hujjatlarni o'zgartirish xarakatlarning kim tomonida qoplanishi, idoralarga qatnash ovragarchiliklari kimning bo'yning tushishi, asosiy muhokama mavzusiga aylandi. Mag'firat xola bulami o'z bo'yning olibidan keyin esa hamma munnum, xona-xonasiga taraqlishi.

Mag'firat xola Qirg'izistonga qaytishga tayyorgarlik ko'rар ekan, nabirasi – O'zqir Sulaymonning yuzida umid ko'rdi. Cho'ntagidan bir tumor chiqarib unga uzatdi.

– Ol, buni, buni asra. Bu sehrli tumor. Bu yoningda yursa sen hamisha kuchli bo'lasan. Hamisha g'olib bo'lasan. Hech kimdan qo'rqmaysan. Bu mening senga oxirgi sovg'am. Balki endi ko'rismasiz. "Manas"ni yod ol. Boburni o'qi, Navoiyni, Marshrabni eshitishni o'rgan. Eng muhimi, ismingni unutma. Endi hammasi senda, O'zqir. Bolaginam, bizlarni unutma.

O'zqir tumorni kaftiga bosib, kampir bilan vidolashdi.

– Kechiringlar, – deya shivirladi u, – bu bola ham begona emas.

# DO'ST HAQIDA SO'Z

Boshlanishi 1-sahifada.

Yangi O'zbekistondagi ko'pgina e兹gular u o'zining bilimi va kuch-g'ayrati bilan munosib hissa qo'shdi. Bilgan odamlarning bari uni hurmat qilar, ayrim johil amaldorlar esa ko'p-da yoqtirmsi edi. Kitoblar va ilm-u fan – Rustam Sobirovichning jon-u dili edi, u hamisha bir qadam ilgari yurganiga aksariyat zamondoshlar guvohniz.

Bir necha tillarni a'llo darajada bilar, bemalol gaplashish, bahslashishdan tashqari, guvohni bo'maganman-u, biroq aminmanki, shu tillarda ravon yoza olardi ham. Subhatlar, babs-u munozaralardan turli ellsar buyuk mutafakkirlarining so'zlarini zargarona injalik bilan, ularning o'z tilida misol keltirganiga o'zim shohidman.

Marg'ilon shahrining 2000-yilligini nishonlash uchun hukumat tomonidan tutilgan ishchi guruh tarkibida birga ishlaganmiz. Bizga atoqli shoira Uvaysiy yashagan oddiyigina me'moriy uysda muzej tashkil qilish topshirildi. O'shanda Bosh vazir o'rinsosari bo'lgan Rustam Sobirovich Marg'ilonda o'tkaziladigan tadbirlarga tuyyorgarlik ko'rish uchun tutilgan tashkili qo'mita rahbarlaridan biri edi.

Qurilishlar asnosida shoiraning hovlisidagi mo'jaz maydonchadan bir necha qabr topildi: ularda jasad qoldiglari emas, qadim qo'lyozma kitoblar joylangan kanop qoplar bor ekan. Shoira buvilarining bitiklarini dahiriy bolshavoylar bosqinidan asrash uchun avlodlari shu taxlit yo'l tutmoqqa majbur bo'lgan, qabr qazib noyob qo'lyozmalarini ko'mgan ekan. Tus sodda odamlar... xayol qilganlari, bu jaholat, kitoblarga, ilm-u ma'rifatga qarshi bu harb-u zarb hademay tugaydi. O'shanda qoplar qayta yer ustiga olib chiqiladi, bu nazmiy va falsafasi bitiklarni o'quvhilar o'z tillarida o'qib, baha oladilar...

Ammo tarix o'zani boshqa yoqqa burildi. Gerostratcha vayronkorlik "ijodkor"lari hech yoqqa ketmadilar; yetmaganiga, savodi chiqqan alifbosidan millatimizni mahrum qildilar. Qo'lida arab imlosidagi bitiklar saqlanib qolgan odamlarni esa shafqatsizlarcha qatlom etdilar. Yillar bo'yutunlay unutilan qo'lyozmalar yer osti zulmati va zax asoratidan yaroqsiz holga keldi. Samarcandi va qo'qoni ipak qog'ozning noyob hafif varaqlari bir-biriga yopishib, chirib ketdi...

O'shanda qadim bitiklar "xilxonasi" ga tegishli organlardan vakillar keldi, qoplar chiqarib olindi. Qo'lyozmalar ehtiyyotkorlik bilan changdan tozalandi va ro'yxtaga olish uchun tuman hokimiyatiga olib ketildi. Bitiklarning bari arab imlosida; fors, arab va eski o'zbek tillarida edi.

Hokimiyat binosida ephchilgina yosh xodim kitoblarni shartta-shartta ajratib, ularga tavsif bera ketdi. Rustam Sobirovich yigitni diqqat va qiziqish bilan, gapini bo'lmay tingladi; bilganlarini aytishiga qo'yib berdi, hatto ma'qullab ham turdi. Yigitning xos "ma'ruza'si" tugagach, qayerda o'qigani, ustozni kimligini so'radi.

Keyin... keyin esa hammani hayratda qoldirib, kitoblarni butunlay boshqacha – yozilgan tiliga ko'ta, fors, arab va o'zbekcha qilib ajratdi; u yoki bu qo'lyozmaning nima haqdaligini aniq-ravshan tushuntirdi. Shu taripa ahli majlisga ham, haligi yigitchaga ham bilimni namoyish qilish emas, til va tarixni bilish muhimroq ekanini uqtirib qu'di.

U kishi muloyim va bariton ovoz sohibi, o'ta bilimdonlik ilova diplomatlarcha so'zlar, fikrini o'zbek va rus tillarida yorqin ifoda eti olardi. Men uning YUNESKO vakillari bilan engilz tilida, fransuzcha iqtisoblarini joy-joyiga qo'yib gaplashganiga shaxsan guvohni bo'lganman.

Uning ajoyib sulukatlari bor, hatto sigaretini ham zodagonlarcha bir nazokat bilan chekar edi. Harakatlari, gapso'zlaridan sahnada rol o'ynayotgandek tuyulardu-yu, lekin hech bir artistonaliq yo'q, barchasi tabiiy, uni kuzatish niyoyatda maroql edi.

Biz Rustam Sobirovich bilan juda ko'p muzej ekspositsiyalarini tayyorladik.

Men undan noyob rahbarlik tajribasini o'rgandim – doimo o'zgalar fikrini hummat qilar, odamlarni tinglashni bilar, tanbeh bersa halimlik bilan, ko'ngilga tegmaydigan qilib berar edi. Har qanday fikrini, hatto g'oyat keskin g'oyalarni ham eshitma olar edi. Xulosa qilishga shoshmas, obdan o'ylar-fikrlar, keyin esa hammasini yana qaytadan muhokama qilar edi. Basharti, biron taklif ma'qul kelmaganda ham, mutaxassis olimlar, dizaynerlar, rassom

va hunarmandlar fikrini rahbariyatga yetkazishga va'da berar edi.

Biz o'nlab ob'ektlarni xuddi yo'q joydan barpo etgandekmi. Shulardan biri Qarshidagi VIII asrda qurilgan va Chingizxon qo'shinlari tomonidan vayron etilgan Odina masjididir. Qarshini mo'g'ul bosqinchilaridan himoya qilgan mardarning eng oxirgilar shu yerdan panoh topgan. Sho'ro davrida masjid qayta tiklandi, lekin charxning kajraftorligini qarangki, madaniy osori atiqi o'rniда o'ta xavfli "jinoymatchi"lar – Buxoroning mashhuri jahon ruhoniylarini hibsa saqlash uchun turma barpo etildi. Hatto istiqboldan keyingi 2000-yillarda ham bu yer mudhishligi bilan donej ketgan qamoqxona edil.

Masjid qoshidagi madrasa nullavachchalari yashaydigan hujralar kaftday derazali bir kishilik kameralarga aylantirilgan edi. Bu "hujra"larga din arboblari tashlangan – buni ta'mirlash mahali topilgan yozuvlar ham tasdiqlaydi. Kamarlardagi cho'yan quvurlar esa eng mudhish "topilmal" bo'ldi – ular o'tgan Vaqt sababli emas, qondan zanglab ketgan. Hammamiz dahshatga tushdik: bu quvurlarda gunohsiz qatl etilgan ajoddalarining qoni oqqan...

Masjid hovlisida sardoba – yomg'ir suvlarini jamlab qo'yiladigan usti yopiq inshoot bor ekan. Sardobada ham qijnoq kameralar bo'lib, ularda mahbuslar suvxona gumbaziga osib qo'yilgan.

Mohiyat e'tibori bilan qaraganda, biz u yerda O'zbekistonidagi qataq'on qurbanlarining bo'lajak muzeysi analogini barpo etgan edik.

Ta'kidlash joizki, Rustam Sobirovich jonkuyarrahar, qo'lostidagilarga otalarcha e'tibori edi. Esimda, Qarshidagi Odina masjidida biror oycha ishlaganimizdan keyin muzejhunoslardan biri sariq kasalga yo'lqib, yotib qoldi. Yaqin kundarda Qarshiga mamlakat rahbari kelishi kutilayotgan edi, shunga qaramay, Rustam Sobirovich bemonri zdulik bili Toshkentga jo'natdi, kasalxonaga joylashishini ham o'zi nazorat qilib turdi. Toshkentga qaytgach, bemonri shaxsan so'rab bordi.

Qarshidagi ishlardan keyin Rustam Sobirovich poytaxtimizdag'i mintaqada qatag'on qurbanlariga bag'ishlangan ilk muzeyning barpo qilinishida o'sha muzejshunos olimmi arxiv masalalar bo'yicha bosh mutaxassis qilib oldi. Bosh vazir o'rinsosaring yordami bilan men ham ikkiti ekspeidsiyani Sibirning tashlandi – GULAGlariga yuborishga muvaffaq bo'ldi. Har ikkala ekspeidsiya ko'ngilli metsenatlar tomonidan ta'minlandi va ular qatag'on qilingan, jasadi Sibirning ovloq yerlaridagi umumiyoq qabristonlarda abadul-abad qolib ketgan o'n minglab o'zbekistonliklarning taqdiridan hikoya qilguvchi nodir materiallarni olib qaytdi.

Qarshidagi ishlardan keyin Rustam Sobirovich qattiq ranjitar, u o'ziga niyoyatda talabchan, boshqalardan ham shuni talab qilar edi. Hamma amaldorlar ham u kishidek kuyunchak emas edi. Domla mutafakkirlardan biri aytgan gapni ko'p takrorlar edi: "Og'riqni his etsang – tiriksan, o'zganing og'rig'i his etsang – insonsan".

Kuyunchaklik, mas'uliyatni haddan ortiq his etish uning sog'lig'iha putur yetkazdi.

O'zgalarining ishini, tashvishini hadeb ko'ngilga olavermaslik kerakligini ko'p bora uqtirdim; odam shunday tarbiyalangan bo'lsa, iloji yo'q ekan – nachora.

O'z vaqtida Amudaryo sohilidagi Hakim Termizi maqbarasini yonida joylashgan bir yarim asrlik chegaraga postini modernizatsiya qilish ham Rustam Sobirovich bilan menga yuklatilgan edi. Bu shaharcha hozir ham O'zbekiston – Afg'oniston chegarasidagi o'ta muhim janubiy savdo nuqtasi hisoblanadi.

Rustam Sobirovich shaharchada yashaydigan chegarachilar, ularning oilalaridagi short-sharoit uchun mas'ul edi. U odamlar bilan batapsil suhabatlashdi, ularni shoyon e'tibor bilan tingladi, ovloq bir joyda ayollar va bolalarning yashash sharoitiga oid har biitta tafsilotni o'rganib chiqdi. Menga esa loyihalash va bezash, binolar hamda xizmat xonalarini obodonlashtirish, ko'rgaznali va boshqa materiallar vositasida harbiy-siyosiy tuyyorgarlikni takomillashtirish vazifasi yuklangan edi.

O'shanda Rustam Sobirovichning qurolni bemalol ishlata olishi, harbiyotni ham bilishi va chegarachilarining texnik tuyyorgarligini shu ishning ustasiday tekshirgani meni lol qoldirgan. Bu sohaning qanday qilib bu qadar chucherishini so'ranganimda, aytidiki, ilgari arab mamlakatlarida tarjimonlik qilgan va ish yuzasidan harbiyotni ham o'rgangan ekan.

Rustam aka asl ziyoili oila da ulg'aygan insonning mukammal timsoli, bir-biriga butunlay zid sohalarga o'id turli bilimlar va turli nuqtayi nazarlarni o'zlashtirgan bo'lsa-da, xolis estet va intelligent bo'lib ola olib shaxs edi.

Chunonchi, u O'zbekistonning xalqaro madaniy-gumanitar hamkorligi va "xalq diplomatiya'sini rivojlantirishni kuchaytirish lozim, deb hisoblar, ammo bu xil yondashuvga siyosi va iqtisodiy munosabatlarga O'zbekiston uchun manfaatli deb hisoblaydigan ayrim hamkasblari ishonchszilik va beparvolik bilan qarar edilar. Biroq Rustam Sobirovich siyosi va iqtisodiy aloqalar hamisha siyosi

va hunarmandlar fikrini rahbariyatga yetkazishga va'da berar edi.

Biz o'nlab ob'ektlarni xuddi yo'q joydan barpo etgandekmi. Shulardan biri Qarshidagi VIII asrda qurilgan va Chingizxon qo'shinlari tomonidan vayron etilgan Odina masjididir. Qarshini mo'g'ul bosqinchilaridan himoya qilgan mardarning eng oxirgilar shu yerdan panoh topgan. Sho'ro davrida masjid qayta tiklandi, lekin charxning kajraftorligini qarangki, madaniy osori atiqi o'rniда o'ta xavfli "jinoymatchi"lar – Buxoroning mashhuri jahon ruhoniylarini hibsa saqlash uchun turma barpo etildi. Hatto istiqboldan keyingi 2000-yillarda ham bu yer mudhishligi bilan donej ketgan qamoqxona edil.

Albatta, hamma narsa faqat unga bog'liq emas edi. Lekin Rustam Sobirovich o'z prinsiplari va idealiga har qachon sodiq qola bilgan shaxsdir. Aynan shu fazilatlarini tufayli Birinchi prezidentning ham, mamlakatimizning amaldagi rahbarining ham hummatiga sazovor bo'ldi.

Hamisha adolat va ijtimoiy tenglik uchun kurashgan R.Qosimov yurtimizda bixil me'moriy uslubdagi qishloqlar barpo etilishining ham tarafodorlaridan bo'lib, bundan yagona turmush madaniyatini shakllantirish nazarda tutilgan edi.

Shunday qishloqlardan birida Rustam Sobirovich xo'jako'sinsinchil bo'lib qolmasin, deb har bitta kottejini kechasi, shaxsan o'zi borib tekshirdi. Bir xonadonda o'gil bolalar xonasidagi karavotga Merilin Monroning cho'milish kiyimdag'i surati tushirilgan adyol yopilgan ekan. Mahalliy amaldorlarning xonani bo taxlit "bezagan" dan Rustam Sobirovich hangang bo'ldi. Darhol yig'lish chaqirdi, bu ishni qilganlar bola tarbiyasi uchun ham mas'ul ekani, ularning kaltabinlik va loqaydig'i noto'g'ri ekani haqida kuyunib, uzoq gapirdi.

Surxonyoda – Termiz yaqinida sho'ro davrida mevalarining o'ziga xosligi bilan mashhur limonxona bo'lar, bu tansiq ne'mat faqat partiya arboblarining dasturxoniga tortilar edi. Mustaqillik yillari "Obod qishloq" dasturi doirasida o'sha limonxona o'rniда o'zining maktab, tibbiyot punkti, kutubxonasi bo'lgan 60 kottejdan iborat qishloq barpo etildi. Bir gal o'sha qishloqni tekshirgani bordik. Pollar qo'porilib ketgan, istish quvurlari yo'q, cho'yan batareyalar pol ostiga ko'milgan... Javob beradigan odam yo'q – pudratchi pulni olib jutifikni rostlagan.

Bu taxlit o'lda jo'lda ishlar Rustam Sobirovichni qattiq ranjitar, u o'ziga niyoyatda talabchan, boshqalardan ham shuni talab qilar edi. Hamma amaldorlar ham u kishidek kuyunchak emas edi. Domla mutafakkirlardan biri aytgan gapni ko'p takrorlar edi: "Og'riqni his etsang – tiriksan, o'zganing og'rig'i his etsang – insonsan".

Kuyunchaklik, mas'uliyatni haddan ortiq his etish uning sog'lig'iha putur yetkazdi. O'zgalarining ishini, tashvishini hadeb ko'ngilga olavermaslik kerakligini ko'p bora uqtirdim; odam shunday tarbiyalangan bo'lsa, iloji yo'q ekan – nachora.

O'z vaqtida Amudaryo sohilidagi Hakim Termizi maqbarasini yonida joylashgan bir yarim asrlik chegaraga postini modernizatsiya qilish ham Rustam Sobirovich bilan menga yuklatilgan edi. Bu shaharcha hozir ham O'zbekiston – Afg'oniston chegarasidagi o'ta muhim janubiy savdo nuqtasi hisoblanadi.

Rustam Sobirovich shaharchada yashaydigan chegarachilar, ularning oilalaridagi short-sharoit uchun mas'ul edi. U odamlar bilan batapsil suhabatlashdi, ularni shoyon e'tibor bilan tingladi, ovloq bir joyda ayollar va bolalarning yashash sharoitiga oid har biitta tafsilotni o'rganib chiqdi. Menga esa loyihalash va bezash, binolar hamda xizmat xonalarini obodonlashtirish, ko'rgaznali va boshqa materiallar vositasida harbiy-siyosiy tuyyorgarlikni takomillashtirish vazifasi yuklangan edi.

O'shanda Rustam Sobirovichning qurolni bemalol ishlata olishi, harbiyotni ham bilishi va chegarachilarining texnik tuyyorgarligini shu ishning ustasiday tekshirgani meni lol qoldirgan. Bu sohaning qanday qilib bu qadar chucherishini so'ranganimda, aytidiki, ilgari arab mamlakatlarida tarjimonlik qilgan va ish yuzasidan harbiyotni ham o'rgangan ekan.

Rustam aka asl ziyoili oila da ulg'aygan insonning mukammal timsoli, bir-biriga butunlay zid sohalarga o'id turli bilimlar va turli nuqtayi nazarlarni o'zlashtirgan bo'lsa-da, xolis estet va intelligent bo'lib ola olib shaxs edi.

Chunonchi, u O'zbekistonning xalqaro madaniy-gumanitar hamkorligi va "xalq diplomatiya'sini rivojlantirishni kuchaytirish lozim, deb hisoblar, ammo bu xil yondashuvga siyosi va iqtisodiy munosabatlarga O'zbekiston uchun manfaatli deb hisoblaydigan ayrim hamkasblari ishonchszilik va beparvolik bilan qarar edilar. Biroq Rustam Sobirovich siyosi va iqtisodiy aloqalar hamisha siyosi

konyunkturaga, logistika va boshqa omillarga bog'liq degan nuqtayi nazarida sobit edi. Zatan, madaniy-gumanitar aloqalar, aynisa, "xalq diplomatiya'si"ni mamlakatlar o'rta siyosi va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga imkon beradigan mustahkam ko'priq o'rnatadi.

Rustum Sobirovich ma'lum muddat diniy munosabatlar sohasini boshqardi. U kishining fikricha, islam O'zbekistonda har doimilg'i bo'lgan.

Ayni vaqtida bilmal madaniyat turli mojarolardan, jaholatparastlikdan xalos bo'lishga yordam beradi, deb hisoblardi. U ayrim diniy mulozimlarning savod va saviya darajasiga tanziqi qaran edi. Yoshlar bir necha xorijy tillarni, eng avvalo, ona tilini yaxshi bilishlari lozim, til bilish – haytda yangi imkoniyatlarni ochish manbaidir, derdi. Ayni chog'da, domlaning fikricha, davlat va din o'rta siyosatni muvozanan bo'lishi lozim. U kishi diniy aqidalarining chetdan tizishsizligiga ham, dinning jamiyat hayotidan ihotlab qo'yilishiga ham qarshi; din va davlatning, o'zaro raqobatchiliq qilmay, hamkor va uyug'un faoliyat yuritishi tarafdoi edi.

Rustum Sobirovich odamlarni biror-bir belgilga ko'ta – shaharlik yoki qishloqlik ekani, poxtayt yoki viloyatda yashashiga qarab ajarish, tabaqalashtirishga hamisha qarshi edi. Der edi, "Yurtimizning barcha fuqarolari avvalo O'zbekiston farzandlari bo'lishlari zarur". Buning uchun u shahar va qishloqlarda yashash sharoitlari bir xil bo'lishini orzu qilardi.

Rustum Sobirovich kamdan kam rahbarlarda uchraydigan yana bir odati bor – u badiiy ko'rgazmalarga, kino va spektakllar premyeralariga montazam bor edi. Olim sifatida ahli ilm orasida katta hummat-e'tiborga ega bo'lsa-da, davlat xizmati uning uchun muhimroq edi. Qaysi lavozimda ishlasmasin, shu sohada uzoq yillar, halol va samarali mehnat qilganlarga o'zgacha e'tibor bilan qarashi g'oyat ibratidir. Esimda, Islam akademiyasi rektori ekanida atoqli sharqshunos olim, kamtarin inson Ubaydulla Uvatovning 80 yillik yubileyini katta tantana bilan o'tkazishga bosh-qosh bo'ldi. Bunday munosabat

Boshlanishi 1-sahifada

Ilm-fan taraqqiyotining shaxs, millat, xalq, jamiyat, davlat va mamlakat ravnraqi yo'lida qanchalar anhamiyati ekani sog'lom fikri katta-yu kichikha kundek ravshan haqiqat. Ilmiy salohiyat borasida shavkatli o'tmishimiz mayjudligidan haqli ravishda faxrlanamiz. Biror fan sohasi va yo'nalishida yutuqqa va e'tirofa sazovor bo'layotgan yoshlarimiz Yangi O'zbekistonning buguni va istiqboli qanligidan boshimiz ko'klarga yetmoqda.

Har qanday milliy ilm-fan soha va yo'nalishlarini umumlashtirib o'ziga xos daryoga qiyoslash mumkin: u goh jo'shib oqadi, goh sustashadi, goh to'lib-toshadi, yangi o'zanlar oshib, faqat va faqat olg'a intiladi.

Zamonaviy o'zbek fani sovet zamonlarida ham salmoq, zalvor borasida mavqeiny saqlagan. Kimyo, biologiya, geologiya, fizika, matematika, kibernetika, mumtoz filologiya, qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va hokazo yo'nalishlarda o'zbek olimlarining, mutaxassislarining munosib o'mni bo'lgan.

2016-yil 30-dekabr sanasida o'zbek ilm-fani qayta dunyoga keldi. Davlat rahbari sifatida endigina faoliyatini boshlagan Shavkat Mirziyoyev o'sha kuni yurtimizdagi ilm-fan faxriylari, yetakchilar, Fanlar akademiyasi mutasaddilari bilan uchrashdi. Dildan suhbatlashdi, orzu-istiklarga, g'oya-larga qulqo tutdi. Mazkur davra suhbat sharofati o'laroq fanimiz qayta qad rostlash yo'liga o'tdi.

O'zbek ilm-fan dunyosida yangi davr boshlandi! Chunonchi, Fanlar akademiyasi tarkibidagi ilmiy-tadqiqot institutlari qayta tashkil etildi, yangilandi. Yangi oly o'quv yurtinari-ku, asti quo'yaverasiz! Universitetlarda hayot qaynay boshladi. Tasavvur qilaylik, viloyatlarda ochilgan universitetlar vaqt o'tishi bilan mustahkam ilmiy markazlarga aylanadi, u markazlarda yangi o'zbek fanining yangidan yangi avlodlari yetishib chiqadi.

Ana shu singari o'zgarish va yangilanishlar to'lqinida chindan ham ilmiy daraja olishga bo'lgan qiziqish kuchaygandan kuchaydi.

Yashirishning hojati yo'q, sakkiz-o'n yil muqaddam ilmiy faoliyatga bo'lgan qiziqish-intilish niyoyatda susayib ketgan edi, chunonchi, olimlar, o'qituvchi-professorlar "dov-dastgoh"ni yig'ishtirishga tushgan, chunki olimlik mashaqqatini zimmasiga olganlar ham ma'hан, ham moddij jihatdan deyarli ayanqli holatga kelgandi. Ilm-fan istagidagi oqim depsinish darajasiga tushdi. Biroq insondagi botiniy qudrat shundaki, har qanday og'ir sharoitda ham ilmdan, ilm ishtiyoyidan voz kecholmaydigan kechmaydigan kuch, kurtak shaklida bo'lsa-da, mag'lubiyat-u tanazzulga bo'y bermaydi. Buning ustiga, davlat tomonidan bo'lgan e'tibor, rag'bat, madad nazarda utilayotgan oqimga darhol jon bag'ishladi.

Lo'ndasini aytganda, mamlakatimizda nomzodlik, doktorlik ilmiy darajasini olishga bo'lgan qiziqish keskin oshdi. Kechagina olimlik ko'chasiga kirishni o'ziga ep ko'rman, ro'zg'or tashvishining turfa manbalarini amal-taqal qilib yurbanlar bugunga kelib fan nomzodi, fan doktori bo'lish harakatiga tusha boshladi. (O'rni kelganda, og'ir sharoitlarda ilm yo'llini tark etmagan, o'z sohasi-faniga sadoqat ko'rsatgan professorlarimiz, dotsentlarimiz va o'qituvchi-mutaxassislarimiz sha'niga tasannolar aytib qo'ysak adolatdan bo'lur deb o'layman).

Siz, Ro'zimboy, ayni shunday holatning eng nozik muammosiga jamoatchilik

# RENESSANS ULG'AYADIGAN MAYDON



diqqatini qaratmoqdasisiz. Ilmiy daraja olish yengillashib ketayotganidan, yengil-yelpi va arzimas mavzularida dissertatsiyalar yoqlanayotganidan, imlo xatosiz yozishni eplamaydiganlar fan nomzodi wasiqasini qo'liga kiritayotganidan, "Va yana hozirda pul evaziga nomzodlik va hatto doktorlik ilmiy ishini yozib beradiganlar borlig'i" dan tashvishlanmoqdasisiz. Har bir tashvishli holatni dalillar ila asoslashga harakat qilmoqdasisiz. Milliy fanimiz maydoni, ko'lami va miyosi toza, halol va samarali bo'lishini o'ylab, qayg'urmoqdasisiz. Shuning o'zi har qancha tahsising loyiq.

Ezgu niyat yo'lidiagi tashvish-u qayg'urish-laringizni qo'llab-quvvatlagan holda ayrim mulohazalarni o'toqlashish istagi tug'ildi. Birinchı navbatda, ilm ahliga munosabat xususida.

Ro'zimboy! Oddiy odamlarimiz orasida ilm-fanga, olimtabiati kishilarga istehzoli qarash mavjud. Maktabda, hatto oly o'quv dargohlarida "alo"ga o'qiydigan, tirishqoq, izlanuvchan, qo'ldan kitob tushmaydigan o'quvchi va talabalarini ochiqdan ochiq kamsitish, behurmatlash odati hanuz uchrab turadi. Unday yigit-qizlar ortidan, "Anavi, professor!", "Bilag'on akademik-kl" deya istehzolar yog'dirishadi. Afsuski, arzimasdek ko'ringan bu odat ilmdan yiroq odamlarimiz qarashlarida yosh ulg'ayganda ham saqlanib qoladi. Taassuf, "Olim bo'lish osomni?" maqolasining aksariyat o'rinnari shunday kayfiyatni yodga solmoqda.

"Bir professor atigi bir yil davomida 56 (!) nafar falsafa bo'yicha fan doktori tayyorlabdi" degan xabar bilan boshlabsiz maqolani. Bo'rtirish, mubolag'a "san'ati" jurnalisticaning azalii "ko'rk"i ekanligi yangilik emas, buni qarangki, Sizdek tajribali qalamkash, tag'in g'oyatda jiddiy mavzuda so'z yuritayotgan kuyunchak ziyyoli ham mazkur an'ana iznidan chiqolmabsiz. Mabodo chindan ham bir yilda shuncha shogird yetishitrgan "ustoz" bor ekan, uning ephchilagini doston qilishimiz, afsonaviy vatandoshimizni Ginesslar kitobi ga tashiya etish yo'lini izlashimiz, qalamdaftarini qo'ltiqlab yurtimizga yetib keladigan ginesschilarga peshvoz chiqishga hozirlik ko'rshimiz va o'sha professor ko'srtagan karomatni atroflichcha... jurnalist tekshiruvi


Bundan tashqari, qoidabuzarlarga viza olish uchun ariza topshirish, transport yoki boshpana masalasida yordam berganlar 100 000 rialgacha (345 million so'm) jarimaga tortiladi.

**QOZOG'ISTON "OLTIN VIZA" JORIY ETMOQDA**

Saudiya Arabiston hukumati Haj mawsumida Makkaga ruxsatsiz kirmoqchi bo'lganlarga nisbatan yangi sanksiyalarini e'lon qildi. Bu haqda Qirollik Ichki ishlar vazirligi xabar bermoqda.

Yangi qoidalarga ko'ra, Haj ziyoratini ruxsatsiz amalga oshirishga yoki amalga oshirishga uringanlik uchun 20 ming Saudiya rialigacha (69 million so'm) jarima solinadi. Xuddi shunday jarimalar Makkah shahri va muqaddas qadamjolarga kirishga yoki u yerda qolishga harakat qilgan Haj vizasi yo'q shaxslarga ham tegishli bo'ladi.

Qozog'iston Tashqi ishlar vazirligi mamlakatning investitsion jozibadorligini mustahkamlash va uzoq muddatli biznes hamkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiya vizalarini olishning yangi qoidalarni tasdiqladi. Bu haqda "Kazinform" axborot agentligi xabar berdi.



sarflangan chiqim-u sa'y-harakatlarga chidasiga to'g'ri keladi. Zero, katta va novob kashfiyotlar zoye ketgan tajriba-eksperimentlar mevasi, hosilasi hisoblanadi. Siz nazarda tutgan, yengil-yelpi va nosog'lom yo'llar bilan fan nomzodi va fan doktori ilmiy unvonini qo'liga kiritganlar esa o'z sohasi jamoatchiligi orasida otning qashqasidek ajralib turadilar. U toifadagi ucharlar Siz ijobji dalil sifatida xotirga oлgan Urganch davlat universiteti professori Bahovuddin Sodiqov singari chinakam olimlarga aslo soya solo maydalar. Axir fan olamida olimlik odobi, ilmiy oriyat, ilmiy g'urur-nafsoniyat tushunchalarini urug'-urug'igacha qurib ketmagan, unutilmagan, unutilmaydi ham.

Ro'zimboy! O'n yillarda muqaddam eldoshshingiz binayi iqtisod fanidan nomzodlik dissertatsiyasida (o'zingiz tahrir qilib bergan) viloyatning besh yillik iqtisodiy ko'sratkichlari tahsilidan iborat ekanligi uchun siz uni tabriklashdan uyalganingizni eslabisz. Nega yaldoingiz? Iqtisodini, mohiyatini tushunmaysizmi? Men ham iqtisodchi emasman, lekin har bir viloyat, har bir tuman statistika boshqarmasidagi bir "hovuch" raqamni qiyoslash, tahlil qilish orqali butun respublika ravnraqi yo'lida asqatadigan kutilmagan va favqulodda xulosalar chiqarish mumkin. Yoki imlo xatosiz yozolmaydigan deputatni misol tariqasida keltiribsz. To'g'ri, deputat savodli yoza olsa nur ustiga nur, biroq deputatlar orasida hayotda ikki qator xat yozmaganlari, binobarin, imloning ko'chasiga yo'lamaganlari topiladi. Buni qarangki, olimlik martabasining sehri, shukuhi ana shunday chalasavodlarni ham mahliyo etadi, rom etadi, "yo'ldan uradi".

Tarixchilarimiz sha'niga qaratilgan quyidagi ikki ta'na ikki jihatdan noo'rin va asosiz. "Tarix bo'yicha ilmiy ish yoqloyatganlar, - deb yozyapsiz, - moziyning uzoq yoki yaqin davrida sodir bo'lgan voqealarini hozirgi kun - istiqol mafkurasi nuqtayi nazaridan tadqiq qiliyaptimi, "tariximizning kir va qora kunlari" haqidagi haqiqatlarini qay darajada oshib, xalqimizga yetkazishmoqda?"

Avvalo, tarixiy mavzudagi yangidan yangi kitoblar shu qadar ko'p bosilmoqdaki, ashaddiy tarixsevar kitobxonlarimiz ham ularni o'qishqa ulgurolmay qolishmoqda. Buning uchun tarixchi olimlarimizdan har qancha minnadtor bo'lsak arzysi. Qolaversa, Siz o'tmish voqealarini "hozirgi kun - istiqol mafkurasi nuqtayi nazaridan tadqiq qiliñish"ga chaqiraysiz. Vaholanki, tarixni, tarixnavislikni mafkura qura bo'yundirish hech bir zamonda oqishlamanagan, zero, mafkura izmidan chiqmaslik tarixni o'rganishda eng katta va qalts xatolarni boshlab beradi, tarixiy haqiqatni barbob etadi. Bunyod etilayotgan Yangi O'zbekistonda birinchı navbatda, hayot haqiqatini qaror toptirish, har sohada, jumladan, olis-yaqin tarixni o'rganishda xolislik an'anasiga asos solish yo'lidan boryapmiz deb o'layman, shunday emasmi?

Maqolada ilm-fan sohasidagi tashkiliy masalalarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qilgansiz. To'g'ri qilgansiz. Biroq nachora, jamiyat hayotida ortiqcha hisobdorliklardan voz kechish muammoligicha qolmoqda. Olyi o'quv yurtinida, ilmiy tadqiqot institutlarda ortiqcha hisobot berishlarni tartibga solish, optimallashtirish borasida qilinadigan ishlar niyoyatda ko'p. Ilmiy tadqiqotdan bir shingilini xorij nashrlarida chop ettirishda ham

Ushbu ko'rsatkich kunlik raketa uchirishlar soni bo'yicha maksimal natijadan ikki baravar yuqori. Bu haqda "Space.com" xabar berdi.

Uchirilgan raketalarning missiyalarining aksariyati sun'iy yo'lidosh internet tarmoqlarini joylashtirish bilan bog'liq.

## RIM PAPASI LAVOZIMIGA NOMZOD TAVSIYA QILINDI



AQSh prezidenti Donald Tramp rim papasi Fransiskning vafotidan so'ng papa vorisligiga o'z fikrini bildirdi va Nyu-York arxiyepiskopini nomzod sifatida ko'rsatdi, deya xabar berdi "Financial Times" nashri.

O'tgan hafta Vatikanda marhum papasing dafn marosimida ishtirot etgan

mukammallashgan, oqilona tartib, me'yor bo'lmoq'i zarurligi haqidagi fikrlaringizga qo'shilaman.

Burungi fan nomzodi ilmiy darajasi endilikdagi "Falon fan bo'yicha falsafa doktori" deb yozilayotganiga bo'lgan munosabatingizni asoslash uchun yana bir tanishingizning (?), "Hamma yoqni falsafa doktorlari bosib ketdi" degan qochirig'i keltiribsz. Nachora, bu voqeadan ranjish-ranjimaslik har kimning ixtiyori, ammo-lekin bunday ilmiy unvon mohiyatida katta va chuor ma'no ko'zda tutilganini unutmaganimiz ma'qul-da! Kimyo fani bo'yicha falsafa doktori, filologiya fani bo'yicha falsafa doktori, matematika fani bo'yicha falsafa doktori... Nima nazarda tutilmagda? U yoki bu fan bo'yicha nomzodlik dissipertsiyasini himoya qilgan har bir olim o'z fani bo'yicha faylasuf darajasida, faylasufona maqomda fikrly olishi, mushohada yurishi darkor deganidir. Endi kim bu yuksak martabaga loyiq-loyiq emasligi esa butkul o'zga masala, o'zga muammo.

Ro'zimboy! Mazkur mulohazalarning tug'ilishiga Siz, Sizning "Jadid" gazetasida boshilgan maqolangiz turki berdi. Ko'pdan buyon ko'ngilda pishib yetilayotgan ayrim istaklarning qog'ozga tushirilishi sababchi bo'ldi.

Dunyo va bashariyat taraqqiyotini ilmfansiz tasavvur qilip bo'lmaydi. Oddiygina turush farovonligidan to Uyg'onish cho'qqilarini zabt etish orzusining birdan bir manbayi, asosi, povdevi xalqning intellektual salohiyatida tajassum topadi. Siz-u bizni – hammamizni o'ylantirayotgan, tashvishlantirayotgan maqsad-muddaa ham shu! Bu maqsad yo'lidiagi chora-tadbirlar shu qadar ko'pki, serqiraki, ularni sanab adog'iga yetish mushkul. Biz qalam ahli, matbuotchilar keng omma orasida ilmiy muhitni sog'lomlashtirish, jonlantirish yo'lida hormay-tolmay xizmat qilmog'imiz zarur deb o'layman.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining ilm-ommalabop "Fan va turmush" jurnalida faoliyat yuritgan yillarim ilm-fanimizning ko'plab darg'alari bilan bo'lgan muloqotlar hayotimning eng sururlari damlari sifatida yodda qolganidan adoqsiz iftixor tuyganlarimni zinhor unutmayman. Kezi kelganda, yoshlar bilan uchrashuv va suhbatlar chog'ida Obid Sodiqov, Sobir Yunusov, Yoqin To'raqulov, Vosil Qobilov, O'ktam Oripov, Abdumannon Rahimjonov, Hamdam Usmonov, Rahima Aminova, Rahim Bekjonov, Hamid Ziyayev singari milliy ilm-fanimizning unutilmas siymlari haqidagi hayotiy hikoyalari aytgim keladi. "Fan va turmush" har oyda 500 000 nusxada chop etilgani, jurnalda boshilgan maqolalar yuzasidan mamlakatimizning turli burchaklarda yashaydigan keksa-yu yosh mushstariyaldan kuniga yuzlab xat-xabar kelishi xalqimizning ilm-fan soha va tarmoqlariga bo'lgan mehr-muhabbati, qiziqishi timsoli bo'ganini o'toqlashgim keladi. Qanday bo'lmisin, farzandlarimizda ilmiy-badiy-teknik tafakkurni tarbiyalashga qaratilgan nashrlar, teleko'statuvlar yo'lg'a qo'yilishi zarurligini bot-bot takrorlagim keladi. Chunki mana shu kabi ishlarning bari, yuqorida aytigan muhimdan-muhim maqsadga – mamlakatimizda mustahkam ilmiy muhit yaratilishiha xizmat qiladi. Renessans – Uyg'onish mana shu muhit maydonida tug'iladi, ulg'ayadi, yuksaladi!

**Kurshid DO'STMUHAMMAD, filologiya fanlari doktori, professor**

Tramp o'zining ikkala prezidentlik inauguruatsiyasida ham ibodatga boshchilik qilgan kardinal Timoti Dolanni munosib ko'rishini ma'lum qilgan.

## SOBIQ PREZIDENT PORAXO'RLIKDA AYBLANMOQDA

AOL nashrining xabar berishicha, 2017–2022-yillarda Janubiy Koreyani boshqargan Mun Je In prezidentlik lavozimi paytda sobiq kuyovining avia-kompaniyaga ishsha joylashishi uchun yordam berdi.



Mamlakat prokuraturasi uni poraxo'rlik va o'z vakolatini suiiste'mol qilganlikda ham ayblamoqda.




# YELKAMA-YELKA

Bir kunda otuvga hukm qilingan aka-ukalar qismati

## Boshlanishi 1-sahifada

Manbalarda qayd etilishicha, 1937-yilda O'zbekiston bo'yicha qatag'onga uchragan uch ming'dan ziyod mahbusdan 1688 nafari otuvga hukm qilingan. Bu foja asosan O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi maxsus "Uchlik" a'zolari – Apressyan, Segizboyev, Sheyndlin va Yakovlev qo'lli bilan amalga oshirilgan. Davlat xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i Lases taqdim etgan 615-tonli ish bo'yicha o'limga hukm qilingan buxoroliq 17 kishidan to't nafari Burhonovlar sulolasi vakillari – aka-uka Mazharuddin, Mukammil, Muhammir hamda ularning jiyani Misbob Burhonov edi.



**MAZHARUDDIN BURHONOV**  
(1878–1937)

Nufuzli sulolaning munosib vakili Mazharuddin Burhonov butun hayotini ilmiga, xalqni xat-savodli qilishga bag'ishlagan fidoyi, olijanob shaxs edi. Bolaligidan ilmga chanoq Mazharuddin avval otasi qo'lida, keyin eski maktab va madrasalardan ta'lim oladi. U Buxoro madrasasini tugatgach, ilmning keng va zamonaviy manbaridan bahramand bo'lish niyatida 1914-yildan Istanbul universitetining matematika fakultetida o'qiy boshlaydi. Shuning barobarida Turkiyadagi maktablarda o'qituvchilik qiladi. Bu davrda Istanbul nafaqat G'arb va Sharq ilmlari chorrasi, balki zamonaviy ta'lim g'oyalari va usuldarining ham asosiy markazlaridan biri edi. Universitet tafsili davomida Burhonov nazariy bilimlar olish asosida ilg'or pedagogik yondashuvlar bilan ham tanishidi. Maktablardagi faoliyatni chog'ida ta'limda yangi metodlarni o'z ko'zi bilan ko'radi va bu yondashuvlar Mazharuddin uchun haqiqiy kashfiyoti edi. Chunki yangi usullar o'sha vaqtida hali aksariyatlari Sharq mamlakatlardagi matnni yodlash va takrorlashga asoslangan an'anaviy ta'lim tizimidan tubdan farq qilardi. Xalqni ilm-u ma'rifati qilish g'oya-si esa qahramonimiz qalbida kun sayin jadidlik g'oyalaringa hamohang uyg'unlashib borardi. "Nega biz ham bolalarimiz mustaqil fikrleshsha o'rgatmaymiz? Nega ta'lim amaliyot bilan bog'liq bo'imasligi kerak? Nega matematika qafat nazariy o'qitilishi, hayotga xizmat qilmasligi kerak?" degan savollar unga bir zum tinchlik bermas edi.

1922-yilda oliy ma'lumotli matematika o'qituvchisi diplomi bilan Buxoroga qaytib kelgach, u ma'rifiy harakatlarning rosmana yetakchisiga aylan-di. 1922-1923-yillarda Buxoro Xalq Respublikasi Mehnat idorasini boshlig'i va Maorif noziri o'rinnbosari vazifalarida ishladi.

**MUKAMMIL BURHONOV**  
(1884–1937)


Burhonovlar sulolasining yana bir vakili Mukammil maktab va madrasada ta'lim olnadi, 1908-yilda "Tarbiyati atfol" ("Bolalar tarbiyasi") jamiyatni tomonidan Istanbulbulga o'qishga yuboriladi.

U keyinchalik "Yosh buxoroliklar" partiyasiga a'zo bo'lib, taraqqiyatparvar g'oyalarni keng yoishishga intiladi. 1912-yilda Ismoil G'asrali, Abduqodir Shakuri maktablariga qiyosan o'z uyida yangi usuldagisi maktab ochadi. Turli sabablar bilan xat-savod chiqarolmagan qolgan katta yoshli insonlar uchun 1913-yilda kechki maktab tashkil etadi. Bu xayri ishlari uni Buxoro zaminida maorif sohasidagi yetakchi shaxslardan biriga aylantiradi.

1917-yil aprel oyida Buxoroda bo'lib o'tgan yoshlar namoyishidan keyin Mukammil Burhonov Samarcanda ko'chib o'tadi. U ilmiy-ma'rifiy faoliyat bilan shug'ullanishda davom etarkan, yangi davr talab qilayotgan islohotlar uchun bilim va

"Nashri maorif" jamiyatining xorjida o'qiyotgan talabalarni qo'llab-quvvatlash, maktab va kutubxonalar faoliyatini keng-tirish kabi tadbirlarini keng tar-g'ib etdi. Buxoro Respublikasi tugatilganidan so'ng Mazharuddin Burhonov hukumat ishlardan butunlay voz kechib, bor e'tiborini ta'lim bilan shug'ullanishga qaratadi. Xususan, matematika sohasida ilk darsliklar yozadi. 1924–1930-yillarda Buxorodagi dorulmulliminda, so'ngra Samarqand shahridagi musiqa institutida ishladi. 1932–1933-yillarda u Dushanbe hamda 1933–1936-yillarda Toshkent shahrida yashab, ilmi toliblarga matematikadan dars beradi. Keyin Samarqand shahriga ko'chib kelib, maktab o'qituvchiligidan nafaqaga chiqadi.

Mazharuddin Burhonov 1937-yilning 19-iyulida "Milliy ittihod" tashkilotiga aloqadorlikda ayblan qamoqqa olinadi. Bu vaqtida uning turmush o'togi i Saodatxon Samarqand shahridagi o'qituvchilar bilim yurtida tahsil olayotgan edi. Mazharuddin Burhonov so'roq jarayonida 1910-yili Turkiyadan kelganida Fayzulla Xo'jayev bilan tanishganini aytarkan: "U 13-14 yosh bola edi. Men uni siyosiy arbob emas, oddiy millionerning o'gli sifatida tanigan edim. 1922-yili Turkiyadan qaytib kelganimda katta o'zgarishlar bo'lgan ekan. Albatta, Turkiyada milliy partiyalar ko'p edi. Ammo O'zbekistonda biorsta siyosiy partiya yoki "Milliy ittihod" nomli aksilinqilobiy tashkilot haqida eshitgan emasman. "Nashri maorif" kabi ma'rifiy jamiyatlar bo'lgan. Biroq u xalq maorifini qo'llab-quvvatlovchi harakat edi", deydi.



**MUKAMMIL BURHONOV**  
(1884–1937)

tajriba orttiradi. Amir hokimiyat ag'darilganidan so'ng u doimiy ravishda Fayzulla Xo'jayevning yaqin yordamchisi va suyanchig'i sifatida siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda faol ko'rinish beradi.

Tarixdan ma'lum, 1922-yilga kelib Abdurauf Fitrat Buxoro Xalq Respublikasida Maorif xalq noziri lavozimiga tayinlangach, chet el ta'lim muassasalariga yoshlarini yuborish ishini rasmiy va tizimli ravishda yo'lda qo'yadi. Bu mustabid tuzum ostidan endi bosh ko'targan Buxoro yoshlariga katta imkoniyat eshigini ochgan voqeа edi. Ayni shu paytda Mukammil Burhonov hayotida ham yangi davr boshlanadi.

1922-yil oktyabr oyida u Fayzulla Xo'jayev va RSFSRning Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi doimiy vakili Kojevnikov bilan birga Germaniyaga safar qiladi. Ular Berlinda 25 kun davomida turli uchrashuv va muzokaralarda qatnashadi. Safar asnosida Berlinda tahsil olayotgan buxorolik tababalar – Abduvohid Burhonov, Olimjon Idrisov va Badri Sayfulmulk bilan uchrashib, kundalik hayoti, o'qish sharoti, moddigi ahvoli bilan yaqindan tanishadi.

Bu davr tababalar uchun ham, Mukammil Burhonov uchun ham katta mas'uliyat va amaliy tajriba vazifasini o'taydi. U shunchaki kuzatuvchi bo'lib qolmasdan, turkistonlik tababalar tahsil, moddigi ta'minoti va ularning kelajakda Vataniga nafi tegadigan yetuk kadrler sifatida shakllanishiga ko'maklashish yo'lida faol harakat qiladi. Ilmi toliblarning dard-u tashvishlariga akalarcha qulq tutadi. Bu samimiy munosabatlar mustahkam do'stlikka aylanib, 1923–1925-yillarda oraliqida Mukammil Germaniyadan ko'plab maktublar o'di. Tababalar o'z xatlarida millat taqdiri haqida qayg'urishlarini bayon etadi.

Mukammil Burhonov 1920–1924-yillarda Buxoro Xalq Respublikasida Adliya noziri, keyinroq BXSRning RSFSRdag'i muxtor vakili vazifalarida faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasi tashkil etilgach, Samarcanda Fayzulla Xo'jayevning shaxsiy kotibi bo'lib ishladi. Biroq u siyosiy faoliyatni uzoq davom ettirmay, o'qituvchilikka qaytadi. Bo'sh vaqt topdi deguncha maqom san'atining mashhur ustalar Ota Jalol va Ota G'iyosdan musiqi saboq olib, jiyani Mutavakkil Burhonova musiqiy ta'lim berishga kirishadi. Bu haqda keyinchalik Mutual Burhonovning o'zi shunday xorilaydi: "San'atga, musiqaga, abadiyoga oshno Mukammil amakimming uyiga domla Halim Ibodov, Cho'lp'on, Ota Jalol, Ota G'iyos, Levicha Hofiz singari ulug'san at fidoyilaril kerishardi. U kishi tanburni o'zlar chalardi. Sakkiz yoshimda menga tanbur sovg'a qilgandi. Tanbur chertishni avval amakimdan, keyin ustoz Ota G'iyosdan o'ranganman. Kechar-kunduz amakim meni musiqadan o'rash uchun qolishmasdi".

Afsuski, repressiya to'lg'ini Mukammil Burhonovni ham harakatini asoslar bilan izohlab, o'zining beabyekanini tushnirishga harchand urinmasin, ularning hech biri inobatga olinmaydi. Siyosiy muhit shunday edi: hatto muhojirlikdagi tanishlar bilan tasodifiy aloqa ham "millatchilik", "aksilinqilobchilik" deb baholanardi.



**MUHAMMIR BURHONOV**  
(1897–1937)

Sulolaning yana bir iqtidorli vakili, bolalikdan ilm-ma'rifikatiga ishtiyoqmand Muhammir Jadid maktabi va madrasa tahlisining ilk bosqichini tugatishi bilan 1912-yili Turkiyaga o'qishga yuboriladi. U 1921-yilgacha Eski shahar, Bursa va boshqa shaharlarda qatnashadi. Safer asnosida Berlinda tahsil olayotgan buxorolik tababalar – Abduvohid Burhonov, Olimjon Idrisov va Badri Sayfulmulk bilan uchrashib, kundalik hayoti, o'qish sharoti, moddigi ahvoli bilan yaqindan tanishadi.

Buxoroda amirlik tuzumi ag'darilib, "Yosh buxoroliklar" hokimiyatiga kelgach, Muhammir Burhonov ona yurtiga qaytib, yangi tuzilgan hukumatda muhim lavozimlarda faoliyat yuritadi. Avvaliga Buxoro shahrida, keyinroq Chor'yo'va Shahrisabz viloyatlarda militsiya boshlig'i bo'lib ishladi. Burhonovning ushbu davrdagi faoliyatni uni nafaqat huquq targ'ibotchisi, balki jamiyatni yangi yo'nalishiga yetaklashda fidoyi shaxs sifatida namoyon qiladi.

1924-yili u ollavly sabablar bilan Turkiyaga qaytib boradi va ikki yildan ortiq muhojirlikda yashaydi. Bunday uzoq muddat chetda qolish Soviet hukumati tomonidan shubha ostiga olinadi. Ular ushbu safarni "Usmon Xo'jayevga katta miqdorda pul olib borganlik" hamda "Turkiyadan turib BXR hukumatini qo'llab-quvvatlash" sifatida talqin etadi.

1926-yilda Buxoroga qaytib kelgan Muhammir Burhonov O'zbekistonda kuchaygan siyosiy bosimlar natijasida barcha davlat lavozimlaridan chetlatiladi va Samarcandagi 5-maktabda o'qituvchilik qiladi. Garchi bu bosqichda qahramonimiz faoliyatini tashqi tomonidan sokin ko'rinsada, u millat taraqqiyysi fikridan bir zum voz kechmagan, shu g'oya bilan tirik edi.

Muhammir Burhonov 1937-yilning 12-iyunida Samarcanda qo'nga olinib, Toshkentda so'roq qilinadi. Unga nisbatan ayblorlar qalashitirib tashlanadi: "Milliy ittihod" a'zosi; militsiyada ishlab yurgan vaqtida qizil armiyaga qarshi qo'rleshilarni qo'llab-quvvatlagan; Turkiyada bo'lib, xonij gunohini anglamagan iqtidorli Misbob hali oila ham qurib ulgurmay, olyi jazo – o'limga hukm qilindi.

1937-yil 25-oktyabr. Sulolaning to'rt nafar zabardast vakili yelkama-yelka turib shahid bo'ldi. Shu tariqa o'z zamonasingen peshqadami bo'lgan ziyoilning to'rt ustuni bir paytda quladi. Siz farzandlar dog'i boshiga tushgan mushtipar onaizorning holini tasavvur qila olasizmi? Minglab, o'n minglab asl jigargo'shasidan ayrilgan ona xalqning zabun holini-chi?

Ana shu Jonfidoliklar, tarixning shafqatsiz va achchiq saboqlari bugungi tinch va osoyishta kunkurning qadrini anglatib, milliy istiqbolimizni, onajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrabaylashga doimo da'vat etib turadi.

**MISBOH BURHONOV**  
(1905–1937)

Misbob – Burhonovlar sulolining bugun biz hikoya qila-yotgan eng yosh vakili. Uning otasi Muzainiddin Burhonov aniq fanlarning yetuk bilimdoni bo'lgan, dunyoqarashi keng mudarris sifatida nom qozongan edi. Misbohning jadid maktablarida va zamonaviy bilim yurtlarida ta'lim olib, o'z davrining faoliyatidan o'sha qarshidagi majbur bo'ladi...

otasining, oiladagi ma'rifiy muhitning hissasi katta bo'lgan.

Buxoroda amirlik hokimiyatining mutlaq zo'ravonligi hukm surayotgan bir paytda 14 yoshli Misbob va uning padari kutilmaganda adolatsiz hukm tufayli zindonga tashlanadi. Zulmning o'g'ir bosimi bola qalbida qo'rquv va ojizlik emas, aksincha, erkinlikka intilish va zolim tuzumga qarshi kurashish irodasini mustahkamlay bordi. Muayyan ma'noda bu sinovli kunlar Misbohning kelgusi faoliyatini va qarashlarida muhim o'rinnatadi.

1919-yilda otasi vafotidan so'ng Misbob Buxoroni tark etishga majbur bo'ladi. U dastlab Samarcand qoshilganda Toshkentdagi bilim yurtlarida, keyinchalik Moskva davlat universitetining jurnalistik fakultetida tahlil oladi. 1928-yilda o'qishni muvaffaqiyatlama tamomlab, Vataniga qaytgach, bir muddat Samarcandda faoliyat yuritadi. Keyinroq Dushanbe shahriga ko'chib o'tib, 1933-yilgacha "Tojikiston surx" gazetasida bosh muharrir lavozimida ishladi. Mis-



bo' Burhonov yosh va iqtidorli jurnalist sifatida o'z ijodi orqali jamiyatda ma'rifat va taraqqiyot g'oyalarini keng yoyishga intiladi. Biroq...

1933-yilda chaquv ortidan u ham "aksilinqilobchi" degan asosiz va siyosiy tusdagi ayblorlar bilan hibsga olinib, besh yilga qamoq jazosiga hukm qilinadi. Hibsdalik paytida ham unga nisbatan qattol tuzumning siyosiy tazyiqlari davom etar, butun mamlakat bo'ylab stalinchalash repressiyalar avj olib ulgurgandi.


Misbob Burhonov hali ozodlik nafasini to'liq his qilib ulgurmasidan, 1937-yili tag'in qamoqqa olinadi va unga O'ZSSR Jinoyat kodeksining 60- va 67-moddalari asosida "xalq dashmani" degan yangi ayblow qo'yildi. Bunga qadar ham qamoqning chidab bo'lmash uqubatlarini boshdan kechirgan qahramonimiz bemajol, zaif va kasalmand holda edi. Shu bois aytarli so'roq qilinmasdan, barcha ayblorlar bo'yniga ilinadi-qo'yadi. O'zining hech bir gunohini anglamagan iqtidorli Misbob hali oila ham qurib ulgurmay, olyi jazo – o'limga hukm qilindi.

1937-yil 25-oktyabr. Sulolining to'rt nafar zabardast vakili yelkama-yelka turib shahid bo'ldi. Shu tariqa o'z zamonasingen peshqadami bo'lgan ziyoilning to'rt ustuni bir paytda quladi. Siz farzandlar dog'i boshiga tushgan mushtipar onaizorning holini tasavvur qila olasizmi? Minglab, o'n minglab asl jigargo'shasidan ayrilgan ona xalqning zabun holini-chi?

Ana shu Jonfidoliklar, tarixning shafqatsiz va achchiq saboqlari bugungi tinch va osoyishta kunkurning qadrini anglatib, milliy istiqbolimizni, onajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrabaylashga doimo da'vat etib turadi.

Rustambek SHAMSUTDINOV, tarix fanlari doktori, professor

## XOTIRA AZIZ



## QATAG'ON

### QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

**Nabi Rasulzoda** – Andijon shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihod" tashkilotining Andijondagi bo'limi a'zolaridan bire bo'lgan. Uning 1930-yil 2-iyundagi tergova da yutgan gaplari hamda "Milliy ittihod" tashkiloti a'zosi Akbar O'razaliyevning 1935-yil 14-sentyabrdagi tergova bergan ko'rsatmalaridan ayon bo'ladiki, Nabi Rasulzoda aksilinqilobchi faoliyatini uchun otilgan.

**Abdulhay Ayubiy** – Andijon shahrida tug'ilgan. Abdulhay Ayubiy "Milliy ittihod" tashkilotining faol a'zosi bo'lgan. U tashkilotdagi aksilinqilobchi faoliyatini uchun qamalgan. Undan keyingi taqdiri noma'lum.

**Mahmud Qorizoda** – Andijon shahrida tavallud topgan. O'qituvchilik bilan shug'ullangan. Arxiv hujjalarda qayd etilishi, u "Milliy ittihod" tashkilotining Andijondagi bo'limi a'zolaridan bire bo'lgan. 1932-yili sud kollegiyasining hukmi bilan 3 yil muddatga konslagerga yuborilgan.

**X**



## ZARDA

Mavzuning menga aloqasi yo'q deyishga oshiqmang. Bolalikda uch-to'rt o'rtoq yig'ilib, yong'oq, gugurt qutি yo shunga o'xhash nimanidir o'rta ga tikib o'yinlar tashkil qilganiz bor. O'zimdan qiyos, bordi-yu uydagilar qo'qisidan biror ish buyurib qolsa, qo'llim yushmanha bo'la turib, ko'ngil o'zin tomonda qolardi. Ish tezroq tugasa-yu, bolalar safiga o'yinga qaytsam.

Yutuq – g'olib bo'lganniki. Borini boy bergan esa tag'in yong'oq izlashga yoki o'choq boshilab gugurt qutি axtarishga sho'ning ketardik. Biz bolalarga yong'oq go'yo boylik, o'yinda yutqazmasdan uni ko'paytirish esa bi xum tilla topgandagidek zavq berardi. Uning o'ziga chorlovchi gashti, xumori bor edi. Bu beg'ubor davrdagi ermakdek tuyulishi mumkin, ammo chuoqurroq tahlilga tortilsa, tabiatan insonda omad va tavakkalchilikka qiziqish borligi oydinlashadi. Qaniydi, bu ishtiyiq bolalikning o'zi singari qaytmas bo'lsa, o'tmishda qolsa. Ruhiyatimizda yong'oq bilan babbaravar s'ib borar maylning tobora g'uj tomir yoyishi ko'pda fojiga yo'l ocharkan. So'zimiz o'ynashib bo'lmaydigan o'zin – qimor haqda!

**"UTSA TEGAMAN,  
UTDIRSA SO'YAMAN"**

Manbalar qimor o'yinlarining insoniyat tarixida qadimdan mavjud ekanini dalillaydi. Masalan, Mesapotamiya hududidan topilgan miloddan avvalgi III ming yillikka oid suyakdan yasalgan shoshol donachalari. Yoki miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida Hindistonda yaratilgan mashhur "Mahobhorat" dostoni. Asarda dramatik voqealar zanjiriga ko'ra, bosh qahramonlar fojisiga ayan shoshol – qimor sabab bo'ladi. Bu orqali qimor shunchaki o'zin emas, balki inson taqqidiriga keskin ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy omil sifatida talqin qilinadi.

Bunday talqinlar xalq og'zaki ijodiyotida ko'plab topildi. Masalan, o'zbek xalq dostonlaridan biri "Kuntug'mish"da Xolbeka obrazini olaylik. O'n to'rt yoshga yetgach, uning husni kamoli ovozasi olamga yoyiladi. U go'zal, ayni paytda aqli, nard o'yiniga mohir qiz bo'lib yetishadi. Unga barcha mamlakatlardan sovchilar kela boshlaysidi. Xolbeka sovchilarga: "Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o'yinini qo'yaman, o'ynamana, utsa tegaman, utdirsa so'yaman", deb shart qo'yadi. Hatto shahar podshosi Buvraxonga ham shu javobni aytadi...

Zamonlar o'tdi. Qimor shaklan o'zgarib, soddalashdi va shuning

# O'YNASHIB BO'L MAYDIGAN O'YIN



ortidan tobora ommalashdi ham. Masalan, IX asrda ilk bor Xitoya o'yinbos kartalar paydo bo'ldi. XVII asrda kelibesa Italiyada dunyodagi ilk kazino ochildi. Biroq mohiyat o'sha – "utdirsa so'yaman"ligicha qoldi. Zotan, qimor o'yinga bilibilmay bosh qo'shayotganlarni-da pichoqsiz so'ymoqda.

**OSONNING OSTIDAN,  
YENGILNING USTIDAN**

Bugungi kunda bukmekerlik kompaniyalari ishlab chiqqan ilovalar orqali sport musobaqlarini, kazino o'yinlariga pul tikish keng quloch yoyib, domiga tushganni "quchog'i" dan qo'yib yubormayapti. Onlays qimor orgali oson pul topish illyuziyasi ko'pchilikni o'ziga tortayotgani achinarli.

Cho'ntak qurib qolsa-chi? Turgan gapki, tanish-bilishdan qarz ko'tarasiz yo bankdan yoppasiga kredit olasiz. Hash-pash deguncha uni ham boy berganingizni payqamay qolasiz.

Bo'lar ish bo'ldi, to'xtatish kerak, deb o'yagan paytingizda esa g'isht qolipdan allaqachon ko'chgan, yo'qotilgan pullarni qanday qilib bo'lsa-da o'rniqa qo'yish vasvasasi bilan andarmon bo'lasiz. Ulug'lar aytmish: "darding bo'lsa bo'lsin, qarzing bo'lmasin". U yoqda qarzni vaqtida uzolmay, bu yoqda ro'zg'orni butolmay do'st-u yor oldida yuzingiz shuvut bo'lib, doimiy tajang, asabiy kayfiyatga tushsangizda, ko'knori xayolingiz shu safar qo'lingiz baland kelishiga, yutuq endi, albatta, chiqishiga umid beraveradi. Biroq mana shu umidlarning barchasi puchga chiqqan paytda, bu yo'iga kirgan kimki bor, o'zini boshi berk ko'chada ko'radi va undan chiqib ketishning chorasi o'laroq qay biri mol-mulkini sotadi, qay biri frib berishga o'tadi. Xudo ko'rsatmasin, yana qay birlari o'z joniga qasd qilishgacha boradi.

**"ENDI, ALBATTA, CHIQADI"**

Dastlab bir-ikki so'm yutqazasiz, bu hamiyatingizga tega boshlaydi: "o'zimda bor narsani shunday havoga sovurib yuboraveraman-

Bu ko'ngilga qo'rquv solish yo to'qima va yoki ehtimoliy gaplar ham emas, shu bugun yon-verimizda

**BARCHAGA DARS  
QURBONLAR**

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda, ayniqsa, telegramdagи uy sotish kanallarida shunday holatga ko'p duch kelamiz: odamlar yashab turgan, jihozlangan uylarini sotuvga qo'yishmoqda. Sotuv sabablariga e'tibor bersangiz, ko'pincha qarz tufayli deb yozildi.

Ularning qarzga kirish sabablari esa deyarli bir xil:

- Bankdan va odamlardan qarz olib, biznes qilaman deb bankrot bo'lgan.

Odamlar "biznes qilaman" deb, bilim va tajribasiz holda ish boshlaysidi. Ko'pincha bu ishlar mo'jiza kutganday boshlanadi va kutilgan daromad kelmaganidan keyin hammasidan ayrlishadi. Qarzni qaytarish imkonii bo'lmagan uchun oxiri uyini sotishga majbur bo'ladi.

- Havas qilib katta-katta uylar va mashinalar olgan.

Aksariyat odamlar o'zining iqtisodiy holatini hisobga olmasdan, "manmanlik" va havas tufayli katta, shinam uy qurib, "kreditga" yoki qarza qimmat mashina sotib oladi. Biroq vaqt o'tgandan keyin esa bu narsalar o'g'ir yukka aylanadi.

- To'y va ma'rakalar uchun ortiqcha xarajat qilgan.

"Qizimni to'yini qilib qo'yay", "o'g'limni uylantiray" deb, katta to'ylar o'tkazish, ortiqcha chiqim qilish oddiy holga aylangan. Buning uchun qarz olinan

mi, baribir yutaman", deb jahd qilasiz. "Yiqilgan kurashga to'ymas", deganlaridek boy berilganini qaytarib olish ilinjida battar bu girdob domiga tushib boraverasdi. Orada sizga yutishga imkon berishadi (xo'rak!) va xayolda "eplasa bo'larkan-ku" degan o'y shunchaki yutqazib ketavermayman degan ko'r gurur bilan uygashib butun fikri qamrab oladi. Bu g'alabachalar o'zingizga ishonchni oshiradi va oldin hech qayerda tuymagan quvonchni sezaga boshlaysiz. Endi o'yinga emas, o'sha quvonchga bog'lanib qolasiz. Imkon bo'ldi deguncha telefonga yopishasiz, hech kim bilan gaplashgingiz va boshqa hech niman o'ylagingiz kelmay qoladi.

Cho'ntak qurib qolsa-chi?

Turgan gapki, tanish-bilishdan qarz ko'tarasiz yo bankdan yoppasiga kredit olasiz. Hash-pash deguncha uni ham boy berganingizni payqamay qolasiz.

Bo'lar ish bo'ldi, to'xtatish kerak, deb o'yagan paytingizda esa g'isht qolipdan allaqachon ko'chgan, yo'qotilgan pullarni qanday qilib bo'lsa-da o'rniqa qo'yish vasvasasi bilan andarmon bo'lasiz. Ulug'lar aytmish: "darding bo'lsa bo'lsin, qarzing bo'lmasin". U yoqda qarzni vaqtida uzolmay, bu yoqda ro'zg'orni butolmay do'st-u yor oldida yuzingiz shuvut bo'lib, doimiy tajang, asabiy kayfiyatga tushsangizda, ko'knori xayolingiz shu safar qo'lingiz baland kelishiga, yutuq endi, albatta, chiqishiga umid beraveradi. Biroq mana shu umidlarning barchasi puchga chiqqan paytda, bu yo'iga kirgan kimki bor, o'zini boshi berk ko'chada ko'radi va undan chiqib ketishning chorasi o'laroq qay biri mol-mulkini sotadi, qay biri frib berishga o'tadi. Xudo ko'rsatmasin, yana qay birlari o'z joniga qasd qilishgacha boradi.

**KESKIN NAZORAT ZARUR**

Qimorbozlik – bu faqat bir shaxsning muammosi emas, balki butun oila, yaqinlar va keng ma'noda jamiyatni halokat sari yetaklovchi jiddiy ijtimoiy illatdir. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, onlays qimor sabab har yili O'zbekistondan 350 milliondan

1 milliard dollar gacha mablag' xoriga chiqib ketmoqda. "Pul qo'lining kiri" degan gap bu o'rinda o'tmaydi. Chunki masalaning iqtisodiy ko'lami ortida inson taqdiri, parokandalik, izdan chiqib ketgan kelajaklar – jamiyatdagi qalits qibatlari yotibdi. O'nlab, yuzlab yoshlar hayoti qimor tufayli botqoqqa botmoqda.

Qonuniy tizim orqali bunday illatlarni kamaytirish mumkin", deydi agentlik vakili.

Hindiston milliy ozodlik harakatining rahnamolaridan birei

Mahatma Gandhi aytmish "dunyonı o'zgartirmoqchi bo'lsang, buni o'zingdan boshla". Agar insonning o'zi yaxshi tomoniga evrillishni istamasdi, har qanday taqiq foyda bermasligi mumkin. Biz esa sizga bu yo'ldan yuring, yo yurmong demoqdan yiroqmiz. Shunchaki uning ming yillardan buyon o'zgarmas qoidasini eslatish bilan kifoyalanamiz: "Qimorda qafat o'natganlar yutadi". Tamom.

Bu achinarli holatlarga chek qo'yish maqsadida 2024-yil 19-aprel kuni davlatimiz rahbari tomonidan "Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi farmon imzolandi. Unga ko'ra, 2025-yil 1-yanvardan boshlab bu faoliyatga qonuniy asosda ruxsat berish, uni tartibga solish va nazorat qilish tizimi yo'iga qo'yildi.

Farmon ijrosi yuzasidan tashkil etilgan matbuot anjumanida Istiqloliy loyihibar milliy agentligi boshqarma boshlig'i Nodir Jo'rayev ta'kidlaganidek, asosiy maqsad fuqarolar huquqini himoya qilish, noqonuniy qimor qibatlarni bartaraf etish va zararlarini kamaytirishdir.

Afsuski, odamlarda qimorbozlik moyilliq yo'q emas. Har qanday mobil ilovani ochsangiz, deyarli har ikkinchi reklamada qimorga oid platformalar chiqib keladi. Bu insonni o'ziga sekinstalik bilan jabol qiladi. Odamlar xorij, nazoratsiz va ko'pincha aldamchi saytlarda qimor o'ynab, katta mablag' yo'qtishmoqda. Farmonning mohiyati shundaki, qonuniy asos yaratilib, itsenziyalangan platformalar orqali bu faoliyat nazoratga olinadi. Ko'p guvohi bo'lyapmiz, qimor o'yinlari jinoyatchilik, shaxsiy qarzorlik va o'z Joniga qasd qilish kabig'ir oqibatlarga sabab bo'lmoxda. Qonuniy tizim orqali bunday illatlarni kamaytirish mumkin", deydi agentlik vakili.

Hindiston milliy ozodlik harakatining rahnamolaridan birei Mahatma Gandhi aytmish "dunyonı o'zgartirmoqchi bo'lsang, buni o'zingdan boshla". Agar insonning o'zi yaxshi tomoniga evrillishni istamasdi, har qanday taqiq foyda bermasligi mumkin. Biz esa sizga bu yo'ldan yuring, yo yurmong demoqdan yiroqmiz. Shunchaki uning ming yillardan buyon o'zgarmas qoidasini eslatish bilan kifoyalanamiz: "Qimorda qafat o'natganlar yutadi". Tamom.

Shukur LATIF

**Jadid**  
adabiy, ilmiy-savdo va ijtimoiy hujumlik gazeta

**Muassislar:**



**O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**




**RESPUBLIKA MA'NAVİYAT  
VA MA'RİFƏ MARKAZI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLİKASI  
FANLAR AKADEMİYASI**



**MILLIY MASS-MEDIANI  
QOL'LAB-QUVVATLASH  
VA RIVOJLANTIRISH  
JAMOAT FONDI**



**SHAHIDLAR XOTIRASI  
JAMOAT FONDI**

**Bosh muharrir:**  
Iqbol Mirzo

**Mas'ul kotib:**  
Shuhrat Azizov

**Navbatchi muharrir:**  
Dilmurod Do'stbekov

**Sahifalovchilar:**  
Erkin Yodgorov  
Nigora Tosheva

Mualif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar mulligiga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omavviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19733

Shundan:

Kirill yozuvida – 8 019

Lotin yozuvida – 11 714

Media kuzatuvchilar – 43 086

Buyurtma: G – 540.

Hajmi: 4 bosma tablo, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6




**Sharq' nashriyot-matbaa  
aksiyadorliq kompaniyasi  
bosmaxona manzili:**

Toshkent shahri,  
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqt: 21:00

Bosishga topshirish: 20:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

## TILBILIM

**MING YIL OLDIN AYTILGAN**